

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX VA MADANIY MEROS FAKULTETI

TARIX KAFEDRASI

Fakultet dekani:

Ochilov O'S.

Kafedra mudiri:

Rahmonov K.J.

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Mavzu: Afina va Sparta o'rtaida Peleponnes urushi

**5120300- Tarix (jahon mamlakatlari bo'yicha) bakalavr darajasini
olish uchun**

**Tarix ta'lif yo'naliishi
bitiruvchisi: Aslonov
Navro'zbek Rustamovich**

**Ilmiy rahbar: o'qit.
J.Sh.Hayitov**

Buxoro – 2018

MUNDARIJA:

	sahifa
KIRISh.....	4-8
Ibob: Pelopones urishni keltirib chiqargan tarixiy sabab va urishning kechishi	9-26
I.1. Urishni boshlanishiga bahona va Arxidam urishi.....	9-17
I.2. Birinchi urishdan keyingi vaziyat, Dekeleya urushining boshlanishi.....	17-26
IIbob: Pelopones urishidan keyingi yunon shaharlarining ahvoli	27-42
II.1. Yunon shaharlarining inqirozi va uni bartaraf etishga urinishlar.....	27-34
II.2. Sparta hukmronligining kuchayishi va spartadagi ichki axvol.....	34-39
II.3. Fivaning yuksalishi 2-afina ittifoqining tashkil topishi.....	39-42
Xulosa.....	43-49
Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yhati.....	50-51

KIRISH

Mavzuning dolzarbliji. Mavzuning dolzarbliji shundan iboratki qadimgi davr va davlatlar to‘g‘risida hozirgi kunda juda kam ilmiy ishlar va magistrlik dissertatsiyalari va bitiruv malakaviy ishlar bajarilmoqda. Qadimgi davlatlar to‘g‘risida dalillarning kamligi va ko‘p ma'lumotlarni o‘z navbatida mubolag‘aligi bu davrning o‘rganishni biroz mushkullashishiga olib keladi. Qadimgi davrning kam o‘rganilyotganligi mavzuni dalzarbligini oshiradi. Zero “O‘z tariximizga oid asar va qo‘lyozmalar, ularni ayniqsa o‘z ajdodlarimiz tomonidan yaqin o‘tmishda bitilganlarini o‘rganish tarixchilarimiz oldida eng katta vazifa bo‘lib qolmoqda. Bu o‘rinda gap, eng avvalo, yoshlar va axoli o‘rtasida mamlakatimizning boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ‘ib qilish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish haqida bormoqda” – deb ta’kidlagan edilar Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev.¹

Bundan tashqari Yunoniston o‘zining tabiatini, me'morchiligi, san'ati, hunarmandchiligi, madaniyati va urf-odatlari, davlatchiligining o‘ziga xosligi bilan ko‘pchilikda qiziqish uyg‘otadi. Hozirgi kunimizgacha yetib kelgan yunon me'morchiligi na'munalarini tadqiq qilish, yunon san'atining o‘rganish ishtiyoqi uning qadimgi davrda qay darajada rivojlanganligini bilish ko‘pchilik tarixchilar qatori, tarixdan yiroq bo‘lgan odamlarni qiziqtirishi tabiiy. Shunday ekan qadimgi Yunonistondagi ilk davlatchilik tarixini, bu davlatlar taraqqiyotining o‘ziga xosligi, xo‘jaligi, turmush tarzi, davlatchiligi to‘g‘risida tadqiqod olib borish dolzarb masalallardan biridir. Vatanimizningo‘tmishtarixiga katta e’tibor bilan qaragan birinchi yurtboshimiz“Tarix g‘ildiragini aylanishib bilan, avvalambor, yurt

¹Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: “O‘zbekiston”. 2017. – B.47.

xukumdorlariva amaldorlarihalqningtaqdiriva kelajagixaqida qayg‘urisho‘rniga, o‘zshahsiymanfatlarinhamma narsadanustunqo‘yib,jaxolatva g‘aflatga berilibketishi oqibatida bizbugunyashayotganmintaqa umumbashariytaraqqiyotjarayonlaridanuzulib, rivojlanishdankeskin orqada qolibketdi”.²

Qadimgi Yunoniston davlatlari o‘rtasida kechkan o‘zaro urushlar tarixini o‘rganish, aynan Pelopones urushi tarixini yoritish, bu yunon davlatlari tarixini o‘rganishda eng muxim masala xisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida mavzuning dolzarbligini oshiradi.

Mavzuninig o‘rganilish darajasi. Mavzuning o‘rganilish haqida gapiradigan bo‘lsak, Qadimgi Yunoniston, aynan pelopones urushi to‘g‘risida ko‘plab ishlar amalga oshirilgan. Bular qatorida ko‘plab maqolalar, monografiyalar, asarlar, Yunoniston hududida olib borilgan qazishma ishlari va ularning natijalari muomalaga kiritilgan. Mahalliy olimlar bilan bir qatorda ko‘plab yevropalik va rossiyalik olimlar Yunoniston tarixiga bag‘ishlangan asarlar yozishgan. Yunonistonning qadimgi tarixiga bo‘lgan qiziqishning yuqoriligi, bu hudud to‘g‘risida o‘rta asrlardayoq bir necha asarlarining nashr etilishidan ham ma'lum.

Peloponnes urushini Fukidid o‘z “Tarix”ida izchil suratda batafsil tasvirlagan. Lekin uning xikoyasi miloddan avvalgi 411 yil voqyealari bilan o‘zilib qoladi. Urushning oxiri bizga Ksenofontning «Yunoniston tarixi»dan ma'lum. Bundan tashqari, uning tasviroti Diodorning «Tarixiy kutubxona»sida saqlanib qolgan. Mazkur davrning siyosiy va harbiy arboblarining (Perikl, Nikiy, Alkiviad, Lisandrning) tarjimai holini Plutarx yozgan. Andokidning sud majlisida so‘zlagan va bizgacha yetib kelgan nutqi muhimdir. Aristofanning Peloponnes urushi vaktida yozgan komediyalari

² Каримов.И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. –Т.: Ma’naviyat, 2008.-Б.51.

afinaliklarning miloddan avvallgi V asrning oxirlaridagi turmushi va kayfiyatini aks ettiradi. Obidalardagi yozuvlar va umuman, arxeologik yodgorliklar ma'lumotlar beradi.

Pelopones urishidan keyingi davr Yunonistonning miloddan avvalgi IV asrning birinchi yarmidagi tarixi tarixiy manbalarda garchi bir tekisda bo'lmasada, umuman yaxshi aks ettirilgan. Xatto Yunonistonning Ksenofont tomonidan yozilgan umumiyligi tarixi ham mavjuddir. Ksenofont tomonidan boshqa asarlar ham yozilgan bo'lib, bu asarlarda o'sha zamondagi Yunoniston xayotining turli jihatlarini oydinlashtiruvchi boy ma'lumot to'plangan. Uning ma'lumotlarini miloddan avvalgi IV asrda yashagan boshqa mualliflarning: Aristotel, Lisiy va qisman Demosfen asarlari yordamida to'ldirish va anchagina darajada tekshirib ko'rish mumkin. Aristofan komediyalarida va badiiy adabiyotning boshqa asarlarida ham qimmatli ma'lumot bor.

Ko'pchiligi bizga yetib kelmagan asarlar asosida uzoq o'tmish xaqida asarlar yozgan keyingi mualliflardan Diodor bilan Plutarxni ko'rsatish mumkin. Obidalardagi yozuvlar va tanga va chaqalar ham bizning bu davr to'g'risidagi bilimlarimizni aniqlashga yordam beradi.

Bitiruv malakaviy ishning manbaviy asoslari. Bitiruv malakaviy ishning manbaviy asoslari sifatida R.Rajabovning "Qadimgi dunyo tarixi", F.Boynazarovning "Qadimgi dunyo tarixi", V.I.Avdievning o'zbek va rus tillarida bir necha bor nashr etilgan "Qadimgi sharq tarixi" va "Istoriya drevnogo vostoka", "Istoriya drevnogo mira" kitoblari, V.I.Kuzishin tahriri ostida "Istoriya drevnogo vostoka", "Istoriya drevnogo mira", Vigasin A.A. "Istoriya drevnego vostoka", Dyakonov V. N. "Istoriya drevnego mira", Reder G. "Istoriya drevnego mira" va o'zbek tilida nashr etilgan "Qadimgi dunyo tarixi", Krushkol Y. S. "Istoriya drevnego mira" kabi bir qator asarlarni mavzuni yoritishda manbaviy asos sifatida olindi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi sifatida Qadimgi yunon davlatlari o‘rtasida kechgan pelopones urishi, uni sabab va oqibatlarini o‘rganishni o‘z oldimizga qo‘ydik va bu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagilarni tadqiq qilishni vazifasi sifatida belgilab oldik.

- Pelopones urishi tarixi manbalari va tarixshunosligi;
- Pelopones urishini kelib chiqishi sabablari va unga boxonalar;
- Sparta va Afina ittifoqi o‘rtasidagi birinchi urish (Arxidam) tarixi;
- Arxidam urishidan keyingi vaziyat;
- Dekeleya urishi va uning natijalari;
- Urishdan keyingi yunon shaharlarining inqirozi;
- Yollanma askarlar sonini ortib ketishi bilan bog‘liq muaamolar;
- Inqirozni bartaraf etish borasida olib borilgan ishlar;
- Sparta yetakchisiyasining kuchayishi;
- Fivaning yuksalishi, 2-Afina ittifoqining tashkil topishi;
- Sparta va Eron munosabatlari;
- Pelopones urushining yakuniy natijalarini yoritishni vazifa qilib belgiladik.

Bitiruv malakaviy ishning davriy chegarasi.

Bitiruv malakaviy ishning davriy chegarasi urush harakati kechgan yillarni o‘z ichiga olsada (miloddan avvalgi 431-404 yillar), biz mavzuni to‘laqonliroq yoritish maqsadida miloddan avvalgi I ming yillikning boshlaridan boshlab to miloddan avvalgi IV asrgacha bo‘lgan davrga ta’luqli ma'lumolardan ham foydalandik. Ya’ni Pelopones urishini kelib chiqishi sabablarini bilishning yagona yo‘li urish arafasidagi tarixiy davrni o‘rganishda deb baholagan bo‘lsak, urishning oqibatlari sifatida urishdan keyingi yunon shaharlarini ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini tahlil qilishga harakat qilindi. Shu orqali bitiruv malakaviy ishning ushbu yillarni o‘z ichiga olgani izohlashimiz mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy jihatdan yangiligi. Bitiruv malakaviy ishning ilmiy jihatidan yangiligi shundan iboratki, mavzu hali alohida ilmiy tadqiqod sifatida o‘zbek tilida to‘liq o‘rganilmagan. Mavzu asosan mustaqillikkacha bo‘lgan davrda rus olimlari tomonidan yozilgan asarlar va ularning to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zbek tilidagi tarjimalaridan iborat. Mavzuning o‘zbek tilida, mustaqillik ruhida va qarashlari bilan yoritilishi ishning yangiligidan dalolat beradi. Bundan tashqari ishni yoritishda bir qator yangi ma'lumotlar ham berib o‘tildi.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati: bitiruv ishining ahamiyati unda keltirilgan dalillar, ma'lumotlar manbalarga tayangan xolda yoritiladi. Bu ish kelgusida yoziladigan ilmiy tadqiqodlarga qisman bo‘lsada asos bo‘lib xizmat qilsa maqsadimizga erishgan bo‘lamiz. Shuningdek, bitiruv malakaviy ishning materiallaridan oliy o‘quv yurtlari talabalari, o‘rta maxsus kasb hunar ta’limi va akademik litsey o‘quvchilari, maktab o‘quvchilari uchun o‘tiladigan darslarda foydalanish mumkin. Bundan tashqari mavzu qiziqtirganlar e’tiboriga havola etilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi.

Bitiruv malakaviy ish kirish, ikki bob, beshta paragrif, xulosa va foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro‘yhatidan iborat.

I bob: Pelopones urishni keltirib chiqargan tarixiy sabab va urishning kechishi

I.1. Urishni boshlanishiga bahona va Arxidam urishi

Pelopones urushi Fukidid³ning “Tarix” asarida izchil suratda batafsil tasvirlagan. Ushbu mavzuni yoritishda eng asosiy manba sifatida ushbu asarni olishimiz mumkin. Lekin uning xikoyasi 431-404 yillarda kechkan Pelopones urushini no'malum sabablarga ko'ra miloddan avvalgi 411 yil voqyealari bilan o'zilib qoladi⁴. Urushning oxiri bizga Ksenofont⁵ning “Yunoniston tarixi” dan ma'lum. Ksenofont o'zini asarlarini dastlabkisini Fukididning “Tarix” asarini yakuniga yetkazishdan boshlagan. Uning yana bizga bir yuz yigirmadan oshiq asarlar muallifi ekanligi ma'lum. Bundan tashqari, uning tasviroti Diodorning “Tarixiy kutubxona” sida saqlanib qolgan. Mazkur davrning siyosiy va harbiy arboblarining (Perikl, Nikiy, Alkiviad, Lisandrning) tarjimai holini Plutarx yozgan. Plutarx hayoti davomida ko'plab asarlar yozishi bilan birgalikda o'z davrrida yashab o'tgan ellikka yaqin siyosiy va harbiy arboblarning tarjimai xolini yozgan shaxs sifatida ma'lum. Uning tarjimai xollari orasida yuqorida tilga olingan va bevosita Pelopones urishi voqyealariga aloqadar shaxslarni hayoti orqali ushbu davr tarixini bilib olishimiz mumkin. Andokidning sud majlisida so'zlagan va bizgacha yetib kelgan nutqi muhimdir. Aristofanning Pelopones urushi vaktida yozgan komediyalari afinaliklarning miloddan avvallgi V asrning oxirlaridagi turmushi va kayfiyatini aks ettiradi. Obidalardagi yozuvlar va umuman, arxeologik

³ Фукидид –Милоддан аввалги 460-359 йилларда яшаган Пелопонес уриши тарихига бағишенгандын асар музалифи.

⁴Черкасова Е.А. Хрестоматия по истории древнего мира. Москва 1991. С. 154.

⁵Ксенофонт (430-355 йилларда яшаган) - Аттика асалариси номи билан машғур бўлган юон тарихчиси.

yodgorliklar ma'lumotlar beradi. Olib borilgan arxeoligik tadqiqodlar ham bu davr tarixini o'rganishda eng asosiy manbalardan xisoblanadi.

Peloponnes urushi qadimgi Yunonistonning quldorlik jamiyatida ichki ziddiyatlarning jamlanishi va keskinlashuvi natijasida kelib *chiqqan* ediki, bu ziddiyatlarga viloyatlarning notebris rivojlanishi asos bo'lgan. Qoloq Spartaning 1-Afina dengiz ittifoqini zaiflashtirish yoki qaqshatish xisobiga Yunonistonda o'z siyosiy yetakchiligin qayta tiklashga intilishi, Afinaning iqtisodiy jihatdan rivojlangan raqobatchilarini, asosan, Korinf va Megaraning o'z savdo va hunarmandchilik muxoliflarini zaiflashtirish istagi bilan mos tushgan. Afinaning Janubiy Italiya va Sitsiliyada mustaxkamlanib olish niyati Korinf va Peloponnes ittifoqi uchun ayniqsa xavfli bo'lgan. Miloddan avvalgi V asrning ikkinchi yarmida yunon polislарining aksariyati yo 1-Afina dengiz ittifoqiga, yo Peloponnes ittifoqiga kirganligi sababli urush umumyunon tusini olgan⁶.

1-Afina dengiz ittifoqining iqtisodiy va siyosiy jixatdan gurkirab rivojlanishi bilan bir qatorda Afinaning ittifoqchilar bilan xam, boshqa yunon polislari bilan ham munosabatlari keskinlashib ketgan⁷.

Urushning boshlanishini tezlashtirgan birinchi mojaro Korinfdan, Spartadan va Afinadan yiroqda qadimgi yunon dunyosining g'arbiy chekkasidagi Epidamn koloniysi⁸da va Kerkira orolida (xozirgi Korfu oroli)da yuz bergen. Bu Yunonistondan Janubiy Italiyaga va Sitsiliya oroliga boriladigan dengiz kemalar qatnovi yulidagi ikki muhim bekat bo'lgan. Epidamnda demokratik to'ntarish yuz bergen. Shahardan qochgan aslzodalar Epidamnga xujum boshlaganlar. Epidamliklar o'z metropoliyasi Kerkiradan yordam so'rasada, yordam ololmagan,

⁶Крушкол Ю.С. Кадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 108-б.

⁷Крушкол Ю.С. Кадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 108-б.

⁸ Эпидам колонияси-Албаниядаги ҳозирги Дуррес шаҳрига тўғри келади.

chunki Kerkirada o'sha vaqtida aslzodalar xokimlik qilgan⁹. Kerkira o'z navbatida Korinfning koloniyasi bo'lganligi sababli, Epidamnliklar so'ngra Korinfliklardan yordam so'rashga borganlar. Korinfliklar Epidamnga yordam bergenlar, lekin shu vajdan Kerkira ularga qarshi bosh ko'tarib chiqkan. Dengiz jangida kerkiraliklar korinfliklarni yengdilar, shundan sung korinfliklar o'ch olish uchun darxol katta tayyorgarlik boshlab yuborganlar. Shundan keyin Kerkira 1-Afina ittifoqiga kirgan, bu esa ushbu ittifoq bilan Peloponnes o'rtasida o'tmishda to'zilgan sulxni bo'zish edi. Sulx shartlarida, ittifoqlar bir-biridan o'z tomoniga tarafdarlar tortmasligi lozim, deb pisanda qilingan edi. Afinaning yordami kerkiraliklarni korinfliklar bilan bo'lgan dengiz jangida tomoman mag'lub bo'lishdan qutqazib qolgan¹⁰. Shu tariqa Janubiy Italiya va Sitsiliyaga boriladigan dengiz yulida Korinf bilan Afina o'rtasida harbiy nizo chiqqan. Bu nizoda demokratik Afina Kerkira aslzodalariga yordam bergen, bu yordam o'z navbatida Epidamn demokratlariga yordam bergen aslzodalar Korinfning umumiyligi dushmaniga qapshi qaratilgan. Shunday kilib Korinf bilan Afinaning iqtisodiy manfaatlari ularning siyosiy totuvligi ustidan g'olib kelgan¹¹.

Ikkinchi mojaro bevosita birinchi mojarodan keyin yuz bergen. Voqyealar Xalkidika yarim oralidagi Korinf koloniyasi Potideyada avj olib ketgan. Xalkidika 1-Afina dengiz ittifoqiga a'zo bo'lgan, lekin ayni vaqtida, u Korinf bilan ham mustahkam aloqada bo'lgan, binobarin, Kerkira bilan orada nizo chikqandan keyin Korinf Potideyani Afinadan ajralishga undagan. Afinaliklar Potideyani qamal qilganlar, Korinf esa Potideyaga qurolli yordam bergen. Megara Korinf tomonini olib maydonga kirgan. Xar ikki polis jon-jaxdlari bilan

⁹История дипломатии. Москва. Политиздат. 1959. С. 39.

¹⁰Ражабов Р. Қадимги дунё тарихи. Тошкент 2009. В.207.

¹¹Крушков Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. В.108.

Spartani Afinaga qarshi urush harakatlari boshlashga undaganlar. Shundan keyin uchunchi mojaro yuz bergen: Afina xalq yig‘ini 1-Afina dengiz ittifoqi a’zolarining barcha gavan¹²larida Megaraning savdo kemalariga boykot e’lon qilgan maxsus qarorni tasdiqlagan. Egey dengizi sohillaridagi barcha shaharlar va barcha orollar bilan deyarli tanho o‘zi savdo-sotiq qilib kelgan Megara savdo-xunarmandchiligi butunlay najotsiz ahvolga solib quyilgan¹³.

Arxidam urushi (miloddan avvalgi 431-421 yillar).

Korinf va Megaraning tazyiqi ostida spartaliklar Arxidam II guruxi ostida Afinaga qarshi urush harakatlarini boshlab yuborganlar. Arxidam II spartaliklarning quruqlikda ustunligini hisobga olgan xolda urushni olib borish rejasini ishlab chiqan. Shu sababli bu urush Peloponnes urushi deb, uning birinchi davri esa Arxidam urushi deb nom olgan¹⁴. Arxidam Attikadagi iqtisodiy va siyosiy ahvolni hisobga olib, uning qishloq xo‘jaligini xonavayron qilishga va natijada qishloq aholisini, ya’ni Attika dehqonlarini Periklga va uni qo‘llab-quvvatlab kelgan shahar aholisiga qarshi chiqishlariga umid bog‘lagan. Bundan tashqari, Arxidamning taxminicha, Sparta qo‘sishlari qilgan vayrongarchiliklar afinaliklarni ularga qarshi ochik jang bilan chiqishga majbur etishi kerak edi, Afinaning quruqlikdagi kuchlari Sparta kuchlaridan ancha kam bo‘lganligi sababli spartaliklarning g‘alabasi shubhasiz bo‘lib ko‘ringan¹⁵.

Spartaliklarning urush olib borish rejasiga afinaliklar Perikl ishlab chiqqan rejani qarama-qarshi qilib qo‘yanlar. Spartaliklar quruqlikdagi o‘z harbiy kuchlarining ustunligiga asoslangan bo‘lsalar, afinaliklar o‘z harbiy-dengiz flotining ustunligiga asoslanganlar.

¹² Гаванна-савдо – порт шаҳар

¹³Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 109-б.

¹⁴Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 109-б.

¹⁵Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 109-б.

Attikaning spartaliklar bosqini xavf solayotgan xududlarining qishloq aholisi Afina bilan Pirey o‘rtasida uzun devor bilan to‘silgan masofaga vaqtincha ko‘chirilishi lozim edi. Bu orada Afina harbiy-dengiz floti Peloponnesni qamal qilishi va Korinfning Sitsiliya xamda Janubiy Italiya bilan savdo aloqalarini o‘zishi kerak edi¹⁶. Peloponnes ittifoqining iqtisodiy imkoniyati afinaliklar va ularning ittifoqchilarining iqtisodiy imkoniyatlaridan past bo‘lgan. Dengiz qamali peloponnesliklarni xoldan toydirishi kerak edi. Afinani quruqlikdan to‘sib turgan va uni dengiz bilan bog‘lagan mustahkamlangan qal'a xududi o‘sha zamondagi urush olib borish darajasiga ko‘ra dushman ololmaydigan istexkom bo‘lgan. Buning ustiga spartaliklar kal'alarmi ishg‘ol qilishni bilmaganlar. Dengizda xukmronlik qiluvchi afinaliklar uzun devorlar ximoyasida uzoq vaqt davomida tubjoy aholisi ham, Afinaga ko‘chirilgan kishilarni ham ozuqa bilan ta'minlay olganlar. Perikl rejasining kamchiligi shundan iborat bo‘lganki, unda dehkonlarning majburiy ko‘chirilishi va dushman qo‘shinlari ularning yer maydonlarini vayron qilishlari extimoli ko‘zda tutilmagan¹⁷.

Sparta qo‘shinlari Afinaning shimol va g‘arb tomonlarida joylashgan dehqon xo‘jaliklarini vayron qilgan bo‘lsalarda, lekin afinaliklarni qat’iy jangga torta olmaganlar. Sparta klarning o‘zları ozuqa masalasida mushkul ahvolga tushib qolganlar, chunki ular o‘zları ishg‘ol qilgan joylarni ship-shiydon qilgan edilar, natijada ular ikki oydan keyin Attikani bo‘shatib, Peloponnesga qaytishga majbur bo‘lganlar. Miloddan avvalgi 430 yilda boskin takrorlangan. O‘sha yili Afina boshiga kutilmagan kulfat tushgan: Afina kemalari tashqaridan og‘ir (yuqumli kasallik epidemiyasini Pireyga olib kelgan edilar¹⁸. Juda

¹⁶Ражабов Р. Қадимги дунё тарихи. Тошкент 2009. 110-б.

¹⁷Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 110-б.

¹⁸Сергеев В.С. История Древнего Греции. Москва 1939 г. С 155.

ko‘p qochoqlarning qal'a devorlari ortida iflos sharoitda yashashi orkasida epidemiya tezlik bilan Afinaga tarqalgan va ko‘p kishilarni xalok qilgan. Manbalarda bu kasal vabo deb atalgan. Bu epidemiya mahalliy xususiyatga ega bo‘lgan. Bu kasal Afianing kuchsizlantirgan lekin odamsiz koldirmagan, vabo bo‘lganida uning xamma axolisi qirilib ketgan bo‘lardi. Bu kasal vabo bo‘lganida afinaliklar 14 yildan keyin Sitsiliyaga ekspeditsiya yuborolmas edilar. Aftidan, bu terlama kasalining xillaridan biri bo‘lgan¹⁹.

Halq ayniqsa dehkonlar Periklni Afinaning boshiga tushgan kulfatlarning aybdori deb xisoblaganlar va natijada miloddan avvalgi 430-yilda Perikl hokimiyatdan chetlatilgan. Lekin oradan kup o‘tmay uni oqladilar va miloddan avvalgi 429 yilda uni yana qaytadan birinchi strateg qilib sayladilar. Ammo qartayib (qarib) qolgan Perikl o‘zi yuqumli kasaldan o‘ldi²⁰.

Perikl o‘lgandan keyin Afinada urushni davom ettirish tarafdorlari bilan sulk muzokaralari boshlashga xarakat qilib yurgan doiralar o‘rtasida kurash keskinlashgan. Urush tarafdorlari g‘olib chiqqan. Ko‘nchilik (ko‘nchi-teriga ishlov berib undan mahsulot tayyorlovchi) ustaxonasining egasi Kleon raxbarlikni o‘z qo‘liga olgan. Kleon o‘z siyosatida aholining kambag‘allahib qolgan, Sparta ustidan g‘alaba qilish natijasida o‘z ishlarini tug‘rilab olish umidida yurgan qismining manfatlarini aks ettirgan. Lekin epidemiyan dan ko‘p zarar ko‘rgan Afinaning zaiflashib qolishi shunga olib kelganki, Afina ittifoqi a’zolari orasida Afinaga *qarshi* aslzodalar va aslzoda guruxlarining faolligi kuchaygan. Bu guruxlarga Sparta kuchli yordam berib turgan. Miloddan avvalgi 428 yilda Mitilena shahrida (Lesbos orolida) qo‘zg‘alon ko‘tarilgan, bu qo‘zg‘oltonni afinaliklar zo‘rg‘a

¹⁹Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 110-б.

²⁰Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 110-б.

bostirganlar. Miloddan avvalgi 425 yilda Kerkira orolida qo‘zg‘olon ko‘tarilgan, bu qo‘zg‘olon natijasida xokimiyatni maxalliy aslzodalar qo‘lga olganlar. Aslzodalar bilan aholi o‘rtasidagi birinchi qattiq o‘zaro urush davomida xar ikki tomon yirtqichlikni uchiga chiqargan va har ikkala tomon kurashga nullarni qatnashtirgan Afina yordami bilan Kerkirada, nixoyat, demokratlar g‘olib chiqqanlar²¹.

Talofatlardan bir qadar o‘nglanib olgan afinaliklar miloddan avvalgi 425 yilda Spartaga qarshi urushni kuchaytirgan. Flotga qo‘mondonlik qilgan Afina strategi Demosfen Peloponnesning g‘arbiy sohilini yangidan qamal qilgan, qirg‘oqqa askar tushirgan va Messeniyada joylashgan Pilos portini egallagan. Afinaliklar bu yerda yashovchi spartalik ilotlarni qo‘zg‘olon ko‘tartirishga undaganlar²². Sparta liklar afinaliklarni Pilosdan urib chiqarolmagan bo‘lsalarda, kichikroq Sfakteriya orolini ishg‘ol qilganlar. Bu orol Afina kemalariga Pilos gavanidan chiqish yulini bekitib qo‘ygan. Shundan keyin Afina halq yig‘inining qaroriga binoan, Kleonning o‘zi boshliq bir eskadra Demosfenga yordamga yuborilgan.

Tajribali flot darg‘asi Demosfen Kleon eskadrasi yaqinlashib kelayogganligi haqida xabar olgach, dushman safini yorib o‘tib, unga peshvoz chiqqan. Birlashgan kuchlarga qo‘mondonlik qilgan Demosfen va Kleon Sfakteriya orolida spartaliklarni tor-mor qilishga va ulardan omon qolganlarini asir qilib olishga muvaffaq bo‘lganlar. Asirlar orasida ko‘pgina spartalik aristokratlar bo‘lgan. Endi spartaliklar sulh so‘ray boshlaganlar. Lekin urush tarafdoqlarining kuchayib ketgan guruxi Kleonning talabi bilan Sparta qabul qilolmaydigan shartlarni taklif qilgan va natijada urush davom etgan²³.

²¹Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 111-б.

²²Сергеев В.С. История Древнего Греции. Москва 1939 г. С. 157.

²³Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 111-б.

Tajribali sarkarda Brasid taklifiga muvofiq spartaliklar quruklikdagi kuchlar bilan Egey dengizining shimolida afinaliklarning siyosiy jihatdan muxim markazlariga qarshi zarba tayyorlaganlar. Afinaliklar Frakiyada Amfipol portini egallab, undan Egey dengizinish: butun shimoliy qismini va Kora dengiz bug‘ozlariga o‘tiladigan yo‘lni nazorat qilib turganlar. Amfipol yaqinida o‘z oltin va rangli metall konlari bilan mashhur bo‘lgan Pangey **g‘ori** bo‘lib, uni xam *afinaliklar* egallagan edilar²⁴. Brasid o‘z otryadi bilan tez yurib shimolga o‘tgan va Xalkidika yarim orolidagi bir qancha shaharlarni zabit etgan, so‘ngra Amfipolni ishg‘ol qilgan. Bu esa Afinaning manfaatlariga va obro‘siga juda qattiq zarba bergan.

Amfipol xududida ahvolni to‘zatish uchun Kleonning o‘zi yuborilgan. Biroq unga to‘satdan Brasid xujum *qilib* tor-mor qilib tashlagan. *Qattiq* jangda xar ikkala sarkarda Kleon va Brasid halok bo‘lgan. Lekin Amfipol miloddan avvalgi 422 yilda Afinaning qo‘lidan butunlay ketgan. Amfipol yonida Kleon halok bo‘lgandan va qo‘shinlari mag‘lubiyatga uchragandan keyin sulh tuzish tarafdarlarining ta’siri kuchaygan. Sulh tarafdarlariga Nikiy boshchilik qilgan. Nikiy endi Afinaning tashqi siyosati rahbari bo‘lib qolgan har ikki tomon Peloponnes va 1-Afina dengiz ittifoqlari goh utomonning, goh bu tomonning g‘alabasi bilan o‘n yil davom etgan urushdan tolgan. Sulh muzokaralari boshlangan va miloddan avvalgi 421 yilda Afina bilan Sparta o‘rtasida 50 yillik sulh tuzilgan, bu sulx uning tashabbuskori nomi bilan Nikiy sulhi deb nom olgan²⁵. Nikiy sulhining shartlariga ko‘ra, spartaliklar va afinaliklar ularning qo‘shinlari ishg‘ol qilgan hududlarni bab-baravariga bo‘shatishlari va o‘zaro asirlarni almashtirib olishlari lozim bo‘lgan. Bundan tashqari, qullar (ilotlar)

²⁴Струве В.В. Древняя Греция. Москва 1956 г. С 234.

²⁵Струве В.В. Древняя Греция. Москва 1956 г. С 235.

qo‘zg‘olon ko‘targan taqdirda afinaliklar spartaliklarga yordam berishga va‘da qilganlar. Sulh shartlari to‘la-to‘kis bajarilmagan. Afinaliklar Messeniya Pilosida, spartaliklar esa Frakiyada (Amfipolda) qolganlar. Spartaning ittifoqchilari bo‘lmish Korinf, Megara va Fiva Nikiy sulhini tan olmaganlar²⁶.

I.2. Birinchi urishdan keyingi vaziyat, Dekeleya urushining boshlanishi

Sitsiliya ekspeditsiyasi. Peloponnes urushini keltirib chiqargan ziddiyatlar ilgarigicha hal qilinmay qolgan. Dushman tomonlarning kuchlari taxminan baravar bo‘lgan. Bolqon yarim orolini va unga yaqin orollarni bo‘lib olish bilan cheklangan urush kattaroq natijalarga olib kelmagan. Afina floti tomonidan Peloponnesning nomuntazam qamal qilinishi Peloponnes ittifoqini bo‘shashtira olmagan. Afina aholisining savdo-hunarmandchilik qatlamlari urushning durang bilan tamom bo‘lganidan norozi bo‘lganlar. Rivojlanib borayotgan quidorlik iqtisodiyoti Afina tomonidan nazorat qilinadigan xududlarni kengaytirishni talab etgan, shu sababli urushni yangidan boshlash mayli yana paydo bo‘lgan²⁷.

Bosqinchilik siyosatining tarafdarlariga Periklning qarindoshi Alkiviad bosh bo‘lgan. U Peloponnesni g‘alla va boshqa mahsulotlar bilan ta‘minlab turgan boy va gavjum Sitsiliya orolini istilo qilishni taklif etgan. Sitsiliya yunonlarining bir qismi aristokratik va aslzodaik idora usullarini kuvvatlagan, ammo demokratiya tarafdarlari kam bo‘lgan. Afina aholisi mabodo Sitsiliyaga Afina qo‘sishnari yuborilgan takdirda xuddi ana shu demokratiya tarafdarlariga umid bog‘lagan²⁸.

²⁶Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 112-б.

²⁷Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 112-б.

²⁸Струве В.В. Древняя Греция. Москва 1956 г. С 237.

Sitsiliyaga xarbiy ekspeditsiya yuborish rejasi muvaffaqiyat qozongan takdirda Spartani mag‘lubiyatga olib kelishi va Afinani faqat Bolqonda emas, balki g‘arbda ham Ulug‘ Yunonistonning yetakchisi (yetakchisi) qilib quyishi lozim edi. Binobarin, bu reja Afinada keng shuxrat taratgan. O‘zining tub asosi bilan bu rejada avanturizm elementlari bo‘lgan. Afinada va, umuman, Yunonistonda hyech kim Sitsiliyaning aniq hajmini, uning aholisining sonini va kayfiyatini bilmagan. o‘sha zamonning transport imkoniyatlariga ko‘ra Sitsiliya Yunonistondan juda o‘zoq bo‘lgan. Bu orolni istilo qilish maqsadida katta dengiz ekspeditsiyasi **yuborish** xatarli va mushkul ish bo‘lgan. Afinada ekspeditsiyaning Nikiy boshliq muxoliflari bo‘lgan. Biroq Alkiviad boshliq ekspeditsiya yuborish tarafdozlari g‘olib chiqqan. Afina halq yig‘ini Sitsiliyaga xujumga tayyorlanish va uni amalga oshirish qaqida qapop chiqqargan. Urushdan xonavayron bo‘lgan Attika aholisi o‘z ishlarini Sitsiliya zahiralari xisobidan to‘g‘rilab olishni mo‘ljallagan²⁹.

Miloddan avvalgi 415 yilga kelganda afinaliklar 260 ga yaqin harbiy va yuk kemasini, 32 mingdan oshiqlar, goplit, matros va eshkakchini Alkiviad va Nikiy qo‘mondonligi ostida safarga hozirlaganlar. Bu ekspeditsiyaga Afinaning barcha asosiy zahiralari sarflangan va xarbiy majburiyati bo‘lgan yoshlarning deyarli *xammasi* safarbar qilingan. Foros (xiroj) miqdori oshirilgan, bu esa Afina ittifoqchilarining noroziligiga sabab bo‘lgan. Attikada va undan tashqarida siyosiy vaziyatning nechog‘lik keskinligi Afinada yuz bergen mojarodan ko‘rinib turganki, bu mojaro Peloponnes urushining undan keyingi borishi uchun katta oqibatlarga olib kelgan.

Afina floti Sitsiliyaga jo‘nashidan bir kun burun kechasi noma'lum shaxslar juda ko‘p germalarni-tosh ustunlarni

²⁹Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 113-б.

shikastlantirganlar. Bu ustunlarning tepasida sayoxat va tijorat. xomiysi bo‘lmish ma'bud Germesning byusti o‘rnatilgan edi. Bu xudoni tahqirlash, kufroniy ish bo‘lib, buning uchun o‘lim jazosi berilardi³⁰.

Juda qattiq qidirilishiga qaramay jinoyatchilar topilmagan. Ammo shaxarda germalarni Alkiviad va uning do‘satlari shikastlantirgan degan mish-mish tarqalgan. Tergov boshlangan. Alkiviadga bu kufroniy ishga daxli yuqligini isbotlashga imkon bermaganlar. Flot Alkiviad, Nikiy va Lamax qo‘mondonligida Sitsiliyaga jo‘nashi kerak edi va belgilangan vaqtda u jo‘nab ketgan³¹.

Afina floti Sitsiliya soxillariga yetib borganda-Afinadan xukumat kemasi Alkiviadni olib ketgani kelgan. U germalarni shikastlantirishda ayblanib sudga chaqirilgan edi. Lekin Alkiviad Spartaga kochib ketgan. Afina xalq yig‘ini uni sirtdan o‘lim jazosiga hukm qilgan. Shundan keyin Alkiviad spartaliklarga Afina harbiy sirlarini aytib bergen va shu bilan Sitsiliya sohillari yonida jang qilayotgan Afina flotiga zarar yetkazgan³². Alkiviad afinaliklardan o‘ch olishni davom ettirib, spartaliklarga maslahat berib, Afinaga qarshi urushni yangidan boshlaganda Attikaga qisqa-kisqa muddatlarda bostirib kirish kabi eski (taktikani) jang qilish usulini takrorlamaslik kerak, balki uning hududidan mustaxkamlangan axoli punktini zabit etib, unda Sparta qo‘shinlari uchun doimiy baza (jang qilish uchun tayanch markaz) vujudga keltirish va shu yerdan turib mamlakatni uzluksiz vayron qilib borish kerak, deb aytgan-Shunday qilib, Alkiviad sotqinga va vatan xoiniga aylangan³³.

³⁰Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 113-б.

³¹Авдиев В.И. История Древнего Греции. Москва 1962 г. С. 145.

³²Авдиев В.И. История Древнего Греции. Москва 1962 г. С. 146.

³³Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 113-б.

Alkiviad kochgandan keyin Sitsiliya soxillari yonidagi Afina flotiga Nikiy va Lamax bosh bo‘lib qolgan. Sitsiliyadagi yunonlarning ko‘philigi afinaliklarni sovuq va hatto dushmanlik nazari bilan qarshi olgan. Nikiy urushning to‘xtalishiga umid qilgan va aktiv (keng ko‘lamli) urush harakatlari boshlashni paysalga solib turgan, shu bilan u Sirakuzaga mudofaaga yaxshilab tayyorlanishga imkon bergan, chunki Sitsiliya ekspeditsiyasi asosan Sirakuzaga qarshi yuborilgan. Ko‘p o‘tmay Lamax halok bo‘lgan. Afina floti yakson qilingan, sirakuzaliklar va spartaliklarning birlashgan kuchlari tomonidan qurshab olingan quruqlidagi qo‘sishin majburan taslim bo‘lgan. Nikiy bilan Demosfen Sirakuzada qatl etilgan, asir qilib olingan afinalik askarlar esa qul qilib sotilgan³⁴.

Dekeleya urushi (miloddan avvalgi 413-404 yillar). Sitsiliyada Afina qo‘sini va floti xalok bo‘lishi bilan deyarli ayni bir vaqtda spartaliklar Attikaga bostirib kirganlar va uning shimoli-sharqidagi mustahkamlangan aholi punkti Dekeleyani zabit etganlar. Ular afinaliklarga qarshi doimiy urush harakatlari olib borish uchun unda baza qurib olganlar va Evbeya oroli bilan aloqani uzib qo‘yganlar, chunki Evbeyadan Attikaga oziq-ovqat maxsulotlari yuborib turilgan. Sparta liklar Afina qullariga murojaat qilib, Dekeleyaga qochishga da'vat etganlar va ularga ozodlik berishni va'da qilganlar. 20 mingdan oshiq qullar, asosan hunarmandlar spartaliklar tomoniga kochib o‘tgan. Ko‘p ustaxonalarda va kisman Lavrion konlarida ish to‘xtab qolgan³⁵.

Dekeleya Afinadan 22 kilometrli masofada joylashgan. Sparta liklarning doimo Afinaga hujum qilishi xavfi tug‘ilgan. Qurollangan aholi navbatma-navbat tunu kun shahar devorlari ustida

³⁴Дьяконов В.Н. История Древнего Мира. Москва 1962 г. С. 268.

³⁵Крушков Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 114-б.

qorovullik qilgan. Bunday vaziyatda ittifoqchilar Afinadan ajralib keta boshlaganlar.

Xamon spartaliklar bilan hamkorlik qilayotgan Alkiviad ularga kuchli xarbiy-dengiz floti tuzish uchun Spartaga mablag‘ berish to‘g‘risida Eron noibi Tissafern bilan so‘zlashishni maslahat bergen. Spataliklar miloddan avvalgi 412-411 yillar mobaynida Tissafern orqali Eron shoxi bilan maxfiy shartnomalar tuzganlar. Spataliklar g‘alaba qilgan taqdirda Yunonistonning Kichik Osiyodagi mulklarining hammasini, ya’ni Yunoniston-Eron urushlari vaqtida yunonlarning g‘alabasi natijasida forslar zulmidan ozod qilingan xududlarni Eronga kechib berishga va’da qilganlar³⁶.

Tissafern bilan mo‘zokaralar vaktida Sparta raxbarlari Alkiviad, siyosiy nayrang ishlatmayotirmi, deb undan shubxalana boshlaganlar. Uning xizmatiga endi Sparta muxtoj bulmay kolgan edi, binobarin uni o‘ldirishga qaror qilindi. Birok Alkiviad Eronga Tissafern oldiga kochib ketdi.

Afinaliklar butun kuchlarini flotni qayta tiklashga va ittifoqchilar bilan aloqani mustaxkamlashga sarf kildilar. Ular xatto forosni (xirojni) bekor qildilar va uning o‘rniga 5 foizlik dengiz boji belgiladilar³⁷. Flot kisman kayta tiklangan.

Lekin miloddan avvalgi 411 yilda Afinada aslzodalar to‘ntarishi bo‘lgan-o‘sha vaqtida xalq yig‘inida demokratroq belgilar bo‘lmagan edi, ular flotda-edilar. Shu sababli boy fuqarolarning tazyiqi ostida xalq yig‘ini hokimiyatni aslzodalarga topshirishga va teng huquqli fuqarolar sonini kamaytirishga rozi bo‘ldi. Aslzodalar urushdan toliqqan Attika axolisiga Sparta aslzodalari bilan sulk tuzish to‘g‘risida so‘zlashishga va’da bergenlar. Ashaddiy aslzodalardan

³⁶Дьяконов В.Н. История Древнего Мира. Москва 1962 г. С. 269.

³⁷Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 115-б.

Antifont, Pisandr, Frinix, mo‘tadil aslzoda Feramen va boshqalar Afina davlat o‘zgarishining rahbarlari edilar. Besh yuzlar kengashi bekor qilindi. Uning o‘rniga rasmangina eski to‘rt yuzlar kengashi qayta tiklandi va unga eng boy fuqarolar kirdi. Teng xuquqli fuqarolar soni goplit bo‘lib xizmat qilishga yetarli mablagi bo‘lgan 5 ming fuqarodan iborat qilib qo‘yilgan³⁸.

Sparta bilan olib borilgan mo‘zokaralar natija bermagan, chunki spartaliklar Afina arxesini tugatishni talab qilganlar.) har qanday obro‘-e’tiborini tez yuqotib qo‘ygan aslzodalar terror yordamida saqlanib turganlar. Eng avval boshdan aslzodalar mavqyeining juda nomustaqqam ekanligining sababi yana shu bo‘lganki, demokratiyaning tayanchi bo‘lgan, o‘sha vaqtida Samos oroli yonida turgan Afina floti aslzodaiyani tan olmagan. Dastlab muzokaralar olib borib kelishilgandan keyin Samosga Alkiviad kelgan. U Sparta tartiblarini bilgan va endilikda Sparta flotini tor-mor qilishni taklif etgan va Tissafern yordami bilan Afinada aslzodalarni ag‘darib tashlashni va’da kilgan. Samosdagi Afina askarlari va matroslari Frasibul, Frasill va Alkiviaddan iborat yangi strateglarni saylaganlar. Alkiviad qo‘mondonligi ostida bo‘lgan ikki jangda Afina floti Abidos yonida miloddan avvalgi 410 yilda Eron puliga kurilgan Sparta floti ustidan ikki marta porloq g‘alaba qozongan. Afinaga g‘alla keltirish kayta tiklangan. Sulx to‘zish to‘g‘risidagi va'dasini bajarmagan ashaddiy to‘rt yuzlar aslzodaiyasi hokimiyatni Feramen boshliq 5 minglar mu‘tadil aslzodaiyasiga topshirishga majbur bo‘lgan. Lekin bu hokimiyat xam miloddan avvalgi 410 yilda ag‘darib tashlangan. Xuddi o‘sha yili Alkiviad, Frasibul va Frasill boshliq demokratiya Afina floti Pireyga kelgan va aholi tomonidan tantanali kutib olingan³⁹.

³⁸Бокшанин А.Г. История Древнего Греции. Москва 1972 г. С. 279.

³⁹Круشكол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 115-б.

Alkiviad Samosda bo‘lgan chog‘idayok afinaliklardan o‘tinib gunoxini kechirtirgan edi, g‘olib flot bilan va g‘alla ortilgan kemalar bilan Afinaga kelgandan keyin esa, Afinaning strateg-avtokratori (ya’ni urush vaqtি munosabati bilan cheksiz xokimiyatga ega bo‘lgan strateg) qilib saylangan. Lekin Afina aholisining mahalliy boshliqlari Alkiviadning tiraniyaga intilishidan haqqoniy suratda gumonsiradilar. Miloddan avvalgi 406 yilda Notiy buruni yonida Afina flotining bir qismi Sparta eskadrasidan mag‘lubiyatga uchragan⁴⁰. Garchi bu voqyea Alkiviadning yo‘qligida sodir bo‘lgan bo‘lsada, halq yig‘ini uni noshudlikda ayplashiga bahona bo‘lgan. U yangi muddatga qaytadan saylanmadi va Frakiya Xersonesidagi o‘z mulkiga butunlay ketib qoldi⁴¹.

Notiy buruni yonida mag‘lubiyatga uchragandan keyin butun qolgan Afina harbiy kemalari Lesbos orolida Mitilena shaqri gavaniga kirib bekingan. Sparta floti gavanga kiriladigan joyni qamal qilgan. Afinaliklar so‘nggi mablag‘larini to‘plab va eshkakchilar qilib quyilgan bir qancha meteklar va qullarga fuqarolik huquqi ehson qilib, tez fursat ichida yangi flot qurib olganlar. Bu flot sakkiz strateg qo‘mondonligi ostida xuddi o‘sha miloddan avvalgi 406 yilda Arginus orollari yonida bo‘lgan jangda Sparta floti ustidan porloq g‘alaba qozongan⁴². Haqiqatda Afinaning Egey dengizidagi yetakchisiyasi qayta tiklangan. Lekin Afina xalq yig‘inida demokratik va aslzoda guruhlarning keskinlashib ketgan kurashi natijasida bu g‘alaba motamga aylangan. Arginus orollari yonidagi g‘alabadan bevosita keyin dengiz bo‘roni boshlanib ketgan. Bir necha Afina kemasi nobud bo‘lgan. Ammo eng asosiy masala shunda ediki, jangda halok bo‘lganlarni dafn etish topshirilgan komanda bo‘ronning kasofati bilan

⁴⁰Бокшанин А.Г. История Древнего Греции. Москва 1972 г. С. 280.

⁴¹Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 116-б.

⁴²Редер Д.Г. История Древнего Мира. Москва 1979 г. С. 279.

lozim bo‘lgan diniy marosimni ado qilolmagan. Bu esa o‘sha zamondagi kishilarning e’tiqodicha shakkoklik edi. Halok bo‘lganlarning qarindoshlari ko‘pchiligi dafn etish guruxidagi aybdorlardan bo‘lgan va jazodan qutilganlarni aslzodalar ta’siri ostida ko‘pchiligi demokratlardan iborat bo‘lgan strateglarni jinoyatkoronasovukqonlikda ayblaganlar. Xalq yig‘ini ozgina ko‘p ovoz bilan shosha-pisha strateglarni o‘lim jazosiga hukm *qilgan*. Hukm qilinganlar orasida Periklning o‘g‘li ham bo‘lgan. Strateglar qatl etilgandan keyin afinaliklar aql-xushlarini yig‘ib oldilar va o‘lgandan keyin ularni oqladilar. Qo‘mondonlardan mahrum bo‘lib qolgan flot yaqinda erishilgan g‘alabadan foydalana olmadi⁴³.

Spartaliklar forslar yordami bilan tez muddatda yangi flot qurib oldilar. Bu flotga iqtidorli navarx Lisandr rahbarligida Afinani Qora dengiz bo‘ylaridan keltirilgan g‘alla bilan ta’minalashga yul qo‘ymaslik uchun Gellespontda turib olgan. Afina floti xam shu vaqtda Gellespontda turgan. Lisandr miloddan avvalgi 405 yilda unga to‘satdan xujum qilgan va Echkisoy (yunoncha «Egos-potamos») yonida bo‘lgan jangda uni yakson qilib tashlagan⁴⁴. Bu jangdagi mag‘lubiyat afinaliklarni oziq-ovqat maxsulotlari keltirishdan mahrum qilgan. Oradan ko‘p o‘tmay, Afinani quruqlikdan Dekeleyadan kelgan Sparta qo‘shinlari, dengizdan esa Lisandr floti qurshab olgan. Afinada ocharchilik boshlangan. Mo‘tadil aslzodalarning rahbari Feramen boy va davlatmand fuqarolar orasidagi nufuzidan foydalanib, ularga sulh mo‘zokalarini yurgizish uchun Spartaga borishini aytgan, lekin u o‘z vatandoshlarini aldagan. U spartaliklar yurtida uch kun bo‘lib, hyech qanday mo‘zokara olib bormagan, chunki aslzodalar aholidan bekitiqcha taslim bo‘lishga mayl ko‘rsatmoqda edilar. Feramen

⁴³Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 116-б.

⁴⁴Редер Д.Г. История Древнего Мира. Москва 1979 г. С. 280.

Afinaga qypyq qaytib kelgach, ochlikdan tamoman madori qurigan afinaliklar miloddan avvalgi 404 yilning aprelida taslim bo‘lganlar⁴⁵. Sparta shaharga kirganlar. Afinani Pirey bilan bog‘laydigan va uning havfsizligini ta‘minlab kelgan uzun devor Sparta musiqasining sadolari ostida ag‘darilgan. Afina arxesи tarqatilgan. Afina Peloponnes ittifoqi tarkibiga kiritilgan. Demokratiya o‘rnini aslzodaiya egallagan. Afinaning sobiq ittifoqchilarining Sparta «ozod qilgan» polislariga Sparta garnizonlari joylashtirilgan va aslzodaik to‘ntarishlar qilingan⁴⁶.

O‘ttizlar xukmronligi va demokratiyaning qayta tiklanishi. Afinada xalq majlisи Sparta tazyiqi ostida Feramen taqdim etgan o‘ttiz aslzodadan iborat komissiya saylagan. Bu komissiya yangi davlat tuzumining asoslarini ishlab chiqishi kerak bo‘lgan. Lekin buning o‘rniga komissiya spartaliklar otryadiga tayangan holda amalda Afinaning hukumati bo‘lib olgan. Mashhur aslzodalardan Kritiy va Feramen o‘ttizlarga bosh bo‘ldilar. Ular terroristik idora usulini o‘rnatib, o‘z siyosiy muxoliflarini va umuman ko‘zlariga shubhali bo‘lib ko‘ringan kishilarning xammasini vahshiyarcha jazolaganlar⁴⁷. Ular aholini talaganlar va xatto o‘z xohishlaricha tanlagen boy fuqarolarni va meteklarni o‘ldira boshlaganlar, ularning mol-mulkini o‘z foydalariga musodara qilganlar. Bu ishlarning hammasi asosan Kritiyning o‘zboshimchaligi bilan qilingan. Ko‘proq ehtiyyotkor bo‘lgan Feramen norozilik bildirgandi, Kritiy va ashaddiy aslzodalarning buyrug‘i bilan uni qatl etganlar. Aholi Afinadan qocha boshlagan. Sobiq demokrat strateglardan biri bo‘lmish Frasibul Beotiyaga qochib bekingan. U afinalik qochoqlardan otryad tuzib, chegaradagi Afina istehkomi Filani zabit etgan. Aslzodalarning Frasibul otryadini yuk qilishga urinishlari chippakka chiqqan. Frasibul Pireyga

⁴⁵Бокшанин А.Г. История Древнего Мира. Москва 1982 г. С. 182.

⁴⁶Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 117-б.

⁴⁷Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 117-б.

yaqinlashib borgan. Yo‘l-yulakay uning otryadi tez ko‘paya *borgan*. Aholi *aslzodalarga* qarshi bosh ko‘tarib chiqmoqda edi. Bir necha qattiq janglarda aslzodalar va spartaliklar mag‘lubiyatga uchraganlar. Aslzodalar Munixiya yonidagi jangda o‘zil-kesil tor-mor qilingan, Kritiy o‘ldirilgan⁴⁸.

Miloddan avvalgi 403 yilda Afinada demokratiya qayta tiklangan. Umumiyligi amnistiya e’lon qilingan. Lekin o‘ttizlar komissiyasi keyinchalik «o‘ttiz tiran» laqabini olgan va o‘z jinoyatlari uchun jazoga tortilgan. Afina Peloponnes ittifoqi a’zosi bo‘lib qola bergan⁴⁹.

Bir oz tanaffus bilan 27 yil davom etgan qattiq o‘zaro Peloponnes urushi qoloq Spartaning iqtisodiy va siyosiy jihatdan xiyla taraqqiy qilgan Afina ustidan g‘alabasi bilan tamomlangan. Afina demokratik hukumati bir qancha xatolarga yo‘l qo‘ygan, bu xatolar orasida eng og‘iri Sitsiliya ekspeditsiyasi bo‘lgan. Lekin Sparta afinaliklar Sitsiliyada xalokatga uchraganlaridan keyin ham faqat Eronning yordami bilangina Afinani yengishi mumkin bo‘lgan. Shunday qilib, Afinaning mag‘lubiyatiga halqaro vaziyat ham yordamlashgan. Ammo Afinaning muvaffaqiyatsizligini ildizi Afina demokratiyasining cheklanganlida ham edi. Bu demokratiya o‘zi to‘zgan arxeda qullarnigina emas, balki o‘z ittifoqchilarini ham ekspluatatsiya qiluvchi yetakchiga aylangan edi. 1-Afina dengiz ittifoqinn vujudga keltirgan ijtimoiy g‘ iqtisodiy taraqqiyot keng birlashuvni, polis doirasida cheklanib qolishni bartaraf qilishni talab etardi. Lekin 1 – Afina dengiz ittifoqi buni bartaraf etolmagan.

Pelopones urishi butun Yunonistonni juda zaiflashtirib qo‘ygan, uning iqtisodiy salohiyatiga putur yetkazgan⁵⁰.

⁴⁸Бокшанин А.Г. История Древнего Мира. Москва 1982 г. С. 183.

⁴⁹Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 117-б.

⁵⁰Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 118-б.

IIbob: Pelopones urishidan keyingi yunon shaharlaring ahvoli

II.1. Yunon shaharlaring inqirozi va uni bartaraf etishga urinishlar

Bolqon yarim oroli, Kichik Osiyo Yunonistonining ko‘p xududlarini xonavayron qilgan Peloponnes urushini keltirib chiqargan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot urush tamom bo‘lgandan keyin ham davom etgan. Yunon dunyosining ichki ishlariga aralashib, spartaliklarga yordam berib kelgan Eron Sparta bilan Afina o‘rtasida sulh tuzilgandan keyin ham o‘zining aralashuv siyosatini davom ettirgan⁵¹.

Yunonistonning yangi yetakchisi Sparta yunon dunyosida raxbarlik rolini amalga oshirishda mag‘lubiyatga uchragan Afina ega bo‘lgan darajada ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tajribaga ega emas edi. Miloddan avvalgi IV asrning birinchi yarmidagi ichki va xalqaro vaziyat esa miloddan avvalgi V asrning o‘rtalari va ikkinchi yarmidagi vaziyatdan murakkabroq edi⁵². Bu davrda yunon xayotini belgilab beruvchi asosiy faktorlar quidorlik mahsulot xo‘jaligining yanada o‘sishidan va bu o‘sishning natijasi sifatida ilg‘or, iqtisodiy jihatdan taraqqiy kilgan shaharlarda erkin aholining tabaqalanishidan hamda Bolqon Yunonistonsining janubiy, g‘arbiy va shimoliy kismida ilgari koloq bo‘lgan xududlarda iqtisodiyotning rivojlanishidan iborat. Bu faktorlar qadimgi yunon jamiyatida sinfiy kurashni keskinlashtirdi va maxsulotlar sotishni qiyinlashtirdi. Zaif shahar davlatlari esa buning ustiga tag‘in quidorlarni xonavayron qilingan xalq ommasining g‘azabidan omon saqlashga ojiz ham edilar⁵³.

Manbalar. Yunonistonning miloddan avvalgi IV asrning birinchi yarmidagi tarixi tarixiy manbalarda garchi bir tekisda bo‘lmasada, umuman qoniqarli aks ettirilgan. Xatto Yunonistonning Ksenofont

⁵¹Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 137-б.

⁵²Крушкол Ю. С. История древнего мира.Ч.2. Москва: Просвещение, 1982. С. 130.

⁵³Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 137-б.

tomonidan yozilgan umumiy tarixi ham mavjuddir. Ksenofont tomonidan boshqa asarlar ham yozilgan bo‘lib, bu asarlarda o‘sha zamondagi Yunoniston xayotining turli tomonlarini oydinlashtiruvchi boy ma'lumot to‘plangan. Uning ma'lumotlarini miloddan avvalgi IV asrda yashagan boshqa mualliflarning: Aristotel, Lisiy va qisman Demosfen asarlari yordamida to‘ldirish va anchagina darajada tekshirib ko‘rish mumkin. Aristofan komediylarida va badiiy adabiyotning boshka asarlarida ham qimmatli ma'lumot bor⁵⁴.

Ko‘pchiligi bizga yetib kelmagan asarlar asosida uzoq o‘tmish xaqida asarlar yozgan keyingi mualliflardan Diodor bilan Plutarxni ko‘rsatish mumkin. Obidalardagi yozuvlar va tanga-chaqalar ham bizning bu davr to‘g‘risidagi bilimlarimizni aniqlashga yordam beradi.

Bolqon Yunonistoni shaharlarining ijtimoiy-iqtisodiy inqirozi.

Peloponnes urushi miloddan avvalgi V asrdayoq ko‘zga ko‘rina boshlagan jarayonni tezlashtirib, hunarmandchilikda, savdo-sotiqla va dengizchilikda ishlatilayotgan qullar sonini ko‘paytirdi. Peloponnes urushidan keyin qullar mehnatidan qishloq xo‘jaligida ham foydalanish ko‘payadi. Bu xol hunarmandlarning, yuk tashuvchilarining, batraklarning va shu kabilarning ahvoliga xalokatli ta'sir etgan⁵⁵. Ular onda-sonda uchrab qoladigan ishdan oladigan haq bilan hamda quidorlar davlatining qullarni ishlatishdan keladigan mablag‘lardan va mag‘lub qilingan mamlakatlardan olinadigan xirojdan berib turadigan arzimas sadaqasi hisobiga yashaganlar. Ular quidorlik jamiyatining tekinho‘r zarralari orasida eng past tabaqa edilar. Ishlab chiqarish mehnatiga, qullarning ishi, deb nafratlanib qarash xuddi ana shu davrda keng rasm bo‘lgan. Bu hol kambag‘allarning axvolini yanada

⁵⁴Кузишин В.И. История Древнего Греции. Москва 1986 г. С. 186.

⁵⁵Кузишин В.И. История Древнего Греции. Москва 1986 г. С. 187.

ko‘proq yomonlashtirgan, chunki xalol mehnat kilib pul topish yulini izlashga rag‘batni susaytirgan⁵⁶.

Ko‘p dehkonlar va hunarmandlar qatnashgan urush harakatlari ko‘p yillar davom etganligi sababli bir qancha yer maydonlari qarovsiz, tashlandi bo‘lib qolgan. Omadi kelgan quldorlar ana shu yer maydonlarini bosib olgan yoki arzon bahoda sotib olganlar. yerlar, qullar va boshqa turdagি mol-mulklar qisman qaytadan taqsimlanib, ozgina kishilar qo‘lida to‘planib qolgan. Lekin bu jarayoni bo‘rttirib ko‘rsatish yaramaydi. Yunon shaharlari sharoitida ayniqsa katta yer-mulkarning yoki ustaxonalarning ayrim shaxslar qo‘lida mavjud bo‘lishi mumkin emas edi. Ko‘pincha savdo-sudxo‘rlik kapitalining ayrim qullarda to‘planishi ko‘rinadi, shu bilan birga savdogarlar va sudxurlar ayni vaqtida yerkarni qo‘lga kiritib olishga ham intilganlar. Binobarin, hatto maxsulot ishlab chiqarish eng taraqqiy qilgan davrlarda ham quldorlik jamiyatining natural asosi ana shunda namoyon bo‘lgan. Boy quldor-plutokratlar⁵⁷ ayni bir vaqtida ham sudxur, ham savdogar, ham yer egasi bo‘lganlar.

Amalda ana shular iqtisodiy jixatdan taraqqiy qilgan yunon shaharlarining ichki va tashqi siyosatiga ta’sir ko‘rsatib turganlar⁵⁸.

O‘tmishda milliy quldorlik shaharining tayanchi o‘rta hol fuqarolar bo‘lib, bu fuqarolar, barham topgan shaharning Aristotelning ta‘biricha, eng yaxshi davlat idora usulini-politiyani tashkil etganlar. O‘rta va mayda quldorlar shahar xalq lashkarida ham xizmat qilganlar.

Miloddan avvalgi IV asrdagi demokratik shaharlardagi halq yig‘inlarida biz butunlay boshqacha manzarani ko‘ramiz. Sirdan xech qanday muxim o‘zgarishlar bo‘lmagan. Afinada hatto demokratik belgilar kuchaygan: saylab qo‘yiladigan ko‘p lavozimlarga davlat

⁵⁶Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 138-б.

⁵⁷Бой қулдор-плутократлар (яъни сўз бойлиги билан айтганда кучлилар)

⁵⁸Немировский А. И. Книга для чтения по истории древнего мира. Москва: Просвещение, 1986. С. 188.

tomonidan maosh to‘langan (fuqarolarga hatto xalq yig‘iniga borish uchun ham maosh to‘langan). Lekin sirtqi demokratlashtirish zamirida fuqarolarning xonavayron bo‘lishi hamda davlat lavozimlarining va halq yig‘inida qatnashishning yarim qashshoq fuqarolarning ozgina bo‘lsada, doimiy daromad manbaiga aylanishi pinhon bo‘lgan, chunki xokimiyat tepasida turgan plutokratlar va oligarxlar bu yarim qashshoq fuqarolarni ana shunday sadaqa berish yuli bilan bo‘lib turganlar. Xalq yig‘ini odatda boylarning xohishiga qarab ish tutgan. Lekin yurakda tug‘ilib yotgan qaxr-g‘azab ba’zan sirtga otilib chiqqan, natijada kambag‘al fuqarolar *xalq* yig‘inida yirik mulkdorlarga bir yo‘la favqulodda soliq solish, ulardan birontasini yoki bir nechtasini qisman yoki to‘la ekspropriatsiya qilish haqida qonun chiqartirishga muvaffaq bo‘lganlar⁵⁹.

Miloddan avvalgi IV asrdagi shaharlarda eski shahar halq lashkari o‘z ahamiyatini yo‘qotgan. Fuqarolarning o‘rtta tabaqasi barham yegan, vaholanki xalq lashkarining asosiy kuchlari ana shu tabaqadan iborat bo‘lgan. Kambag‘allarning qurol-yarog‘ sotib olib xalq lashkari safiga borishga mablag‘i bo‘lmagan va buning ustiga plutokratlarning manfaati uchun jang qilishga ularning istagi ham bo‘lmagan⁶⁰.

Miloddan avvalgi V asrning oxirlari-IV asrning boshlarida Yunonistonda yollanma askarlarning bo‘linmalari tez fursatda harbiy kuchlarning asosiy turi bo‘lib qolgan. Yollanma askarlar ilgari ham oz-moz bo‘lgan, lekin endilikda ular ommaviy tus olgan.

Quldarlik jamiyatining rivojlanishi sharoitida kambag‘allahib qolgan omma uchun og‘ir ahvoldan qutulishning birdan-bir yo‘li yollanma askarlar safiga kirishdan iborat edi⁶¹.

⁵⁹Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 139-б.

⁶⁰Немировский А. И. Книга для чтения по истории древнего мира. Москва: Просвещение, 1986. С. 189.

⁶¹Немировский А. И. Книга для чтения по истории древнего мира. Москва: Просвещение, 1986. С. 189.

Yollanma askarlar sonining o'sishi va keyingi zolimliklar.

Yunonistonda askarga extiyoj xamisha katta edi, miloddan avvalgi IV asrda esa urushlar tez-tez bo'lib turganligi sababli bu extiyoj yana ortdi. Eron shoxlari va Misr fir'avnlari yunon yollanma askarlarni ko'plab o'zlariga xizmatga torta boshladilar. Yollanuvchilar mutaxassis askarlar bo'lganligi sababli, ularning ko'payishi yunonlarning xarbiy ishida ham yangi davrni tashkil etardi. Yunonistonda tajribali askarlarning maxsus bozorlari paydo bo'lgan, bu bozorlarda xukumat va askarboshilar ularning qo'shinlarida xizmat qilishni istovchilar bilan shartnomalar tuzganlar⁶².

Miloddan avvalgi IV asrda yollanma askarlar va ularning askarboshilari yunon shaharlarining siyosiy xayotida katta rol o'ynay boshlaganlar. Yollanma askar bo'linmalar shaharlarda hukmron oligarxiyalarning hokimiyatini mustaxkamlar edilar, chunki bu oligarxiyalar o'zlaridagi kambag'allashib qolgan demosning noroziligini bostirish uchun xarbiy kuchga muxtoj edilar. Lekin ba'zan shunday hollar ham bo'lardiki, xuddi shu askarlar ularni yollab keltirgan hukumatni ag'darib tashlar va o'z askarboshilarini tiran deb e'lon qilardilar⁶³.

Yuqorida aytib o'tilgan miloddan avvalgi VII-VI asrlardagi «ilk» tiraniyalardan farq qilish uchun ilmiy adabiyotda odatda «keyingi» yoki «kichik» tiraniyalar deb ataladigan ana shu tiraniyalar, shunday qilib, miloddan avvalgi V asrning oxirlari-IV asrning boshlarida quldorlik jamiyatining taraqqiyoti sharoitidan tug'ilgan edi.

Manbalarning xabar qilishicha, sinfiy va siyosiy kurashda ba'zan qullar ham qatnashgan. Ammo miloddan avvalgi IV acpda Yunonistonda qullarning mustaqil bosh ko'tarib chiqishlari xaqida

⁶²Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 139-б.

⁶³Дьяконов В. Н. “История древнего мира” Т. I. Москва: Наука, 1989. С. 191.

manbalarda, Spartadagi ilotlar qo‘zg‘olonlari tug‘risidagi ma'lumotlarni istisno qilganda, deyarli xech kanday ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Yollanma askarlar xokimiyati odatda qisqa muddatli bo‘lardi, chunki bu kishilar aslida sinfiy qiyofasini yo‘qotgan bo‘lib, ularda xarbiy kasb zaminida uyushmachilik belgilari tarkibtopa boshlagan edi. Ular kambag‘allashib qolgan demosning bevosita manfaatlaridan qisman ajralgan bo‘lib, kimning xisobidan bo‘lishidan qat‘i nazar, faqat boyish maqsadini ko‘zlardilar. Yollanma askarlarning suiste'mollari natijasida ular ezayotgan shaxarliklar qo‘zg‘olonlar ko‘tarishar va tiranlarni quvib yuborardilar. «Tiraniya» («istibdod») so‘zining salbiy ma'nosi xuddi miloddan avvalgi IV asrda paydo bo‘ladi⁶⁴.

Yunon shaharlaring ijtimoiy-siyosiy inqirozi.

Qullar bajaradigan hunarmandchilik ishi ko‘p mablag‘ sarflashni talab qilmagan va umuman qadimgi dunyo xo‘jaligining unchalik ko‘p bo‘lмаган extiyoji va iste'molchilik xarakteri bilan cheklangan. Boylarning bo‘sh mablag‘lari zeb-ziynatga sarflangan, bu esa ijtimoiy tengsizlikni yanada yaqqolroq namoyon qilar va boylar bilan kambag‘allar o‘rtasidagi antagonizmni⁶⁵ kuchaytirgan. Jamg‘arilgan boyliklarning bir qismi xazina-dafinaga aylantirilib, o‘g‘irlash va musodara qilinishdan extiyot chorasi sifatida yerga ko‘milgan.

Ichki shahar bozori hamisha cheklangan edi, buning natijasida miloddan avvalgi V asrdayoq shaharlarning ittifoqlarga birlashuvi yuzaga keladi. Miloddan avvalgi IV asrda ichki bozor yana ko‘proq torayadi. Erkin aholi keng qatlamlarining xonavayron bo‘lishi ularning xarid qobiliyatini pasaytiradi. Qullarko‘pincha xech nima sotib olmaganlar. Boy yer egalari o‘z qullari ishlagan buyumlardan

⁶⁴Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 140-б.

⁶⁵ Антаганизм-зиддият, келиштириб бўлмайдиган қарама-каршилик. Классовый антаганизм-синфий қарама-каршилик, зиддият. Русча ўзбекча лугат. I том. Тошкент 1983. 34 б.

foydalanim, mahalliy maxsulotlarni sotib olmaganlar. Yunonistonning qolgan xududlari qulchilik taraqqiyotiga qadam qo‘ygan edi, binobarin, Afina, Korinf va boshqa savdo hunarmandchilik markazlarida ishlab chiqarilgan maxsulotlarni kam sotib olganlar. O‘sib ketgan qullik xunarmandchiligi esa ishlab chiqarilgan buyumlarni sotishga muhtoj bo‘lgan. Shaharlarning tor chegaralari quldorlik jamiyatining iqtisodiy jihatdan yanada rivojlanishini qiyinlashtirgan. quldorlik jamiyatining ancha ilk bosqichida keskinlashgan sinfiy kurash sharoitida paydo bo‘lgan shaharlar quldorlarning manfaatlarini va mol-mulklarini yaxshi ximoya qilmaganlar. Shaharlar yetarli darajada kuchli bo‘lmasan. Ijtimoiy inqiroz ustiga shahar davlat ustqurmasining siyosiy inqirozi kelib kushildi⁶⁶.

Miloddan avvalgi IV asrning birinchi yarmida umumyunon shaharlari sharoiti ana shundan iborat bo‘lib, bu sharoitni shahardavlat (shahar) doirasidagi yunon quldorlik jamiyatining ijtimoiy va siyosiy inqirozi deb tavsiflash mumkin. Bu yaxlit holdagi quldorlik sistemasining inqirozi emas edi. Bu inqiroz ko‘proq taraqqiy qilgan milliy shaharlarda paydo bo‘ldi va quldorlik xo‘jaligi taraqqiyotining natijasi sifatida Yunonistonning ko‘p qismida yoyildi⁶⁷.

Inqirozni bartaraf qilish yollarini qidirish.

Siyosiy arboblar, faylasuflar va yunon quldorlarining boshqa rahnamolari milliy shaharlarning yunon quldorlik jamiyatni tushib qolgan ijtimoiy va siyosiy mushg‘ulotdan qutulish yulini izlash bilan band bo‘lganlar. Ular orasida aniqroq joylashuvni tutgan kishi Isokrat bo‘lgan. Tantanali nutq shaklida yozilgan «Panegirika» siyosiy traktatida Isokrat yunonlarni Kichik Osiyoni istilo qilish, talash va shu tariqa o‘z ishlarini to‘g‘rilab olish uchun birlashishga da‘vat etgan.

⁶⁶Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 141-б.

⁶⁷Дьяконов В. Н. “История древнего мира” Т. I. Москва: Наука, 1989. С. 192.

Yunonlarning o‘z kuchlari bilan birlashish imkonini bo‘lmagach, Isokrat yunon shaharlarini Philipp Makedonskiyga bo‘ysundirish tarafdoi bo‘ladi va uning rahbarligi ostida Kichik Osiyon suradi. Isokrat yunon axolisining boy tabaqalari manfaatini aks ettirgan. Bundan ko‘zlangan maqsad jo‘n edi. Miloddan avvalgi V asrning oxiridagi voqyealar Eron istibdodi juda zaiflashib qolganligini yunonlarga *yaqqol* ko‘rsatgan edi, shuning uchun uning g‘arbiy kismida joylashgan Kichik Osiyo istilo qilish uchun qulay bo‘lib qolgan edi⁶⁸.

II.2. Sparta hukmronligining kuchayishi va spartadagi ichki axvol

Eron yordami bilan Afina mag‘lub qilingach Sparta Yunonistonga yana yetakchi bo‘lib olgan. Askarboshilar-garmostlar-boshchiligidagi Sparta harbiy bo‘linmalari afinaliklar hokimiyatidan rasmiy ravishda «ozod qilingan», yunon shaharlarida joylashtirilgan va ular shaharlarni talashga kirishganlar. Garchi Sparta Peloponnes urushi jarayonida o‘z aholisini tashqi ta’sirlardan ajratib saqlash siyosatiga barham bergen bo‘lsada, lekin ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jixatdan qoloq bo‘lgan Sparta miloddan avvalgi IV asrning boshlarida Yunonistonning yetakchisi bo‘lish kabi o‘z oldida turgan murakkab vazifalarni uddalay olmagan. Sparta Yunoniston ustidan nazorat o‘rnatishga muvaffaq bo‘lolmagan. Aksincha, sun’iy yakkalanishdan uzil-kesil qutulib chindan Sparta jamiyati Yunonistonning iqtisodiy va siyosiy jixatdan rivojlangan xududlarining kuchli ta’siriga olingan. Miloddan avvalgi V va IV asrlar chegarasida kuchayib ketgan mulkiy tabaqalanish Sparta qonunchiligidagi ham o‘z ifodasini topgan⁶⁹. Sparta tarixida birinchi marta o‘laroq spartaliklarning yer maydonlarini vasiyat qilib qoldirish

⁶⁸Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 141-б.

⁶⁹Дьяконов В. Н. “История древнего мира” Т. I. Москва: Наука, 1989. С. 194.

va in'om qilish to‘g‘risidagi efor Epitadey qonuniga binoan amalda yer maydonlarini sotish va sotib olishga ruxsat etilgan. Spataliklar o‘rtasida ko‘p miqdorda kumush va xatto oltin pullar tarqala boshlagan⁷⁰.

Peloponnes ittifoqida hamisha keskin bo‘lgan sinfiy kurash Spartada nihoyatda shiddatli tusga kirgan. Miloddan avvalgi 399 yilda eforlar fitnani fosh qilganlar. Bu fitnada Sparta «tenglar jamoasi» hokimiyatini ag‘darib tashlash va sparta tuzumini qayta qurish maqsadida birlashgan ilotlar, perieklar va gipomeyonlar - «tanazzullahgan», ya’ni kambag‘allahsgan spataliklar qatnashganlar. Fitnaga serg‘ayrat va aholi o‘rtasida obro‘sni baland yosh gipomeyon Kinadon rahbarlik qilgan. Fitnachilarni bir xoin tutib bergen va spataliklar ularni vahshiyarcha jazolaganlar⁷¹.

Peloponnesda asrlardan beri saqlanib kelgan arxaik munosabatlarning tez yemirilayotganligi munosabati bilan umumiyligining xonavayronlik ayniqsa juda yomon tus olgan. Ko‘p peloponnesliklar vatanni tark etib, yollanma askar bo‘lib qolganlar. Tenar burunida (Peloponnesning janubida) yollanuvchilarning eng katta bozorlaridan biri paydo bo‘lgan. Bu bozorlar umumyunon va ma'lum darajada halqaro ahamiyatga ega bo‘lgan.

Shahzoda Kir yollagan 10 ming yunonning yurishi.

Shu vaqtga yaqin Eronda shox Doro II o‘lgan va Doro II ning vorislari bulmish Artakserks II bilan uning ukasi, Kichik Osiyoning satrapi Kir o‘rtasida taxt uchun kurash boshlangan⁷².

Kir Vizantiyadagi Sparta garmosti Klearxga murojaat qilib, unga yunon askarlari bo‘linmasini yollab berishni taklif etgan. Klearx asosan peloponnesliklardan iborat 10 mingdan oshiq askar yollagan.

⁷⁰Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 142-б.

⁷¹Черкасова Е.А. Хрестоматия по истории древнего мира. Москва. “Просвещение”. 1991. С. 200.

⁷²Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 142-б.

Miloddan avvalgi 401 yilda Kunake qishlog‘i yonida (Bobildan bir necha kilometrlik masofada) bo‘lgan jangda yunonlar g‘alaba qozonganlar. Lekin jangda Kir o‘lgan va g‘olib yunon yollanma askarlari boshliqsiz qolganlar. Shundan keyin ular o‘zlari yaqinda tormor qilgan Eron askarboshisiga xizmatga kirmoqchi bo‘lganlar. Eron lashkarboshisi muzokara vaqtida yunon komandirlarini o‘ldirishni buyurgan va shunday qilib o‘zi ychun xavfli bo‘lgan butun bo‘linmani osonlik bilan qirib tashlamokchi bo‘lgan. Biroq yollanma askarlar bo‘sh kelmaganlar⁷³. Ular yangi komandirlar saylaganlar. Bu komandirlar orasida bo‘lajak yozuvchi va tarixchi Ksenofont ham bo‘lgan. Ksenofont keyinchalik «Anabasis» degan maxsus asarida bu yurishni tasvirlagan. Dushmanlar bilan janglarda siyraklashib qolgan yunon yollanma askarlar bo‘linmasi Artakserksning uni yo‘q qilishga xarakat qilishiga qaramay, miloddan avvalgi 400 yilda Yunonistonga qaytgan.

10 ming yunonning chekinishi miloddan avvalgi IV asrning boshlariga kelganda Eron nechog‘li zaiflashib qolganligini ko‘rsatardi. Klearx Sparta garmosti bo‘lganligi, Kirning yollanma askarlar bo‘linmalari esa ko‘p peloponnesliklar xizmat qilganligi sababli, Eron bilan Sparta o‘rtasidagi munosabatlar buzildi. Ammo 10 ming yunonning chekinishi o‘z ahamiyati jihatidan Eron-Sparta munosabatlari doirasidan chiqib ketdi. Yunon quldorlarining agressiv doiralari Eronning zaifligi to‘g‘risida tegishli xulosa chiqarib oldilar⁷⁴.

10 ming yunon chekinishidan keyin Eron-Sparta munosabatlari. Korinf urushi. Antalkid sulhi.

Kir halok bo‘lgandan keyin Kichik Osiyoga satrap qilinib Tissafern tayinlangan edi. Tissafern Kichik Osiyodagi yunon

⁷³Черкасова Е.А. Хрестоматия по истории древнего мира. Москва. “Просвещение”. 1991. С. 201.

⁷⁴Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 143-б.

shaharlarini Eronga umrbod qo'shib olishga intilganligi sababli u bilan Sparta o'rtasida nizo chiqqan. Garchi Peloponnes urushi vaqtida Sparta Eron bilan shartnoma tuzib, uning Kichik Osiyo ustidan xokimligini tan olgan bo'lsada, lekin endi Yunonistonga yetakchi bo'lib olgan, Sparta o'z va'dasini buzishga uringan. Buning natijasida Sparta bilan Eron orasida urush chiqib, bu urush miloddan avvalgi 399 yildan 394 yilgacha davom ztgan⁷⁵.

Xar ikkala tomondan sustkashlik bilan olib borilgan urushning sunggi yillarida podsho Agesilay Sparta qo'shinlariga qo'mondon qilib tayinlangan va u Sarda yonidagi jangda eronliklar bo'linmalarini mag'lubiyatga uchratgan. Lekin Eron diplomatiyasi Sparta ustidan qat'iyoq g'alabaga erishgan. Forslar Spartaning yetakchisiyasidan ayniqsa norozi bo'lgan Fiva, Afina, Korinf va Argosni pul bilan ta'minlaganlar⁷⁶.

Baquvvat koalitsiya tashkil topib, bu koalitsiya miloddan avvalgi 395 yilda Spartaga qarshi urush harakatlari boshlagan. Ittifoqchilarining qo'shinlari Istmada o'rnashib olgan. Agesilay Osiyoda urushni to'xtatib, quruqlikdagi yul bilan Peloponnesda Spartaga yordamga borishga majbur bo'lgan, chunki Egey dengizini Eron harbiy-dengiz floti nazorat qilgan va bu flotning qumondoni eronliklarga xizmatga kirgan Afina strategi Konon bo'lgan. Konon Kichik Osiyo sohili yaqinidagi Knida yonida bo'lgan jangda Sparta flotini tor-mor qilgan. Eronning moliyaviy yordamidan maxrum bo'lgan spartaliklar halok bo'lgan flot o'rniga yangisini qurolmas edilar. Konon esa Afinaga kelgan. U Peloponnes urushidan keyin spartaliklar buzib tashlagan Afina uzun devorlarini hamda Afina va Pireyning boshka istehkomlarini qayta tiklash uchun Erondan 50 talant

⁷⁵Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 143-б.

⁷⁶Черкасова Е.А. Хрестоматия по истории древнего мира. Москва. “Просвещение”. 1991. С. 202.

qarz olib kelgan. Devorlar va istehkomlar qayta tiklangan. Spartaga qarshi koalitsiyaning asosiy urush harakatlari Korinf yaqinidagi Istmada borganligi va Korinfning uzi ham bu urushda qatnashganligi sababli, odatda Korinf urushi deb ataladi. Bu urush miloddan avvalgi 395 yildan 387 yilgacha davom etgan. Miloddan avvalgi 390 yilda Korinf yonida bo‘lgan jangda Afina strategi Ifikratning porloq g‘alabasi natijasida spartaliklarning qisman erishgan muvaffaqiyatlari tugatildi. Ifikratning peltastlardan (yupqa sovutlar va ko‘n qalqonlar bilan yengil qurollangan askarlardan) iborat manevrli (harakatchan) bo‘linmasi Sparta goplitlarining og‘ir qurollangan va tez harakat qilolmaydigan yon tomonlardagi askarlari ustidan g‘olib kelgan⁷⁷.

Spartaning mag‘lubiyati va Spartaga qarshi koalitsiyaning kuchayishi Eronning mo‘ljaliga kirmagan, binobarin Eron Spartaga yordam bera boshlagan Eronning tazyiqi ostida Korinf urushi to‘xtatilgan va miloddan avvalgi 387 yilda Eronning poytaxti Suzda sulh tuzilgan va bu sulh muzokaralarida ishtirok etgan Sparta elchilarining boshligi Antalkid nomi bilan Antalkid sulxi deb ataladi. Sulh shartlari Sparta elchilarining roziligi bilan Eron shohi tomonidan qolgan barcha yunon davlatlariga buyurib qabul qildirilganligi sababli bu sulh «shoh sulxi» degan g‘alati nomni ham olgan. Bu sulh yunon kuchlarini zaiflashtirishga va bo‘lib-bo‘lib tashlashga uringan Eron diplomatiyasining muvaffaqiyati bo‘lgan⁷⁸.

Umumyunon yetakchisi sifatida Sparta barcha yunonlar nomidan Yunoniston-Eron urushlari istilolarining ko‘p qismidan voz kechgan. Kichik Osiyodagi yunon shaharlari yana Eron xokimiyati ostiga o‘tgan. Eron harbiy-dengiz floti amaldagina emas, balki rasmiy jihatdan ham

⁷⁷Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 144-б.

⁷⁸Ражабов Р. Қадимги дунё тарихи. Тошкент 2009. 221-б.

Egey dengiziga kirish xuquqini olgan. Yunonistonda Peloponnes ittifoqidan boshqa hyech qanday ittifoqlar bo‘lmasligi kerak edi⁷⁹.

Sparta «shox» sulhi moddalariga tayangan holda Bolqon Yunonistonida birdan-bir kattaroq davlat bo‘lib *qolish* uchun barcha, hatto mayda ittifoqlarni ham tugatish siyosatini yurgizishga uringan. Avval boshda spartaliklar bunga muvaffak bo‘lganlar. Miloddan avvalgi 382 yilda Fivani istilo qilish Sparta hujumchilik siyosatining so‘nggi vaqtinchalik muvaffaqiyati bo‘lgan. Lekin Spartaning kuchayishi Afinaning qarshilik ko‘rsatishiga sabab bo‘lgan. Binobarin, Afina Fivadan qochgan demokratlarga Fivada to‘ntarish qilishga tayyorlanishda yordam ko‘rsatgan⁸⁰.

II.3. Fivaning yuksalishi 2-afina ittifoqining tashkil topishi

Fitnachilar kechasi Fivaga kirib olib, oligarxlarni o‘ldirganlar, Sparta bo‘linmasini esa taslim bo‘lishga majbur etganlar. Miloddan avvalgi 379 yilda Fivada demokratiya ta’sis etilgan va Beotiya shaharlarining ittifoqlari qayta tiklangan. Bu ittifoqqa Fiva boshchilik qilgan. Fivaga va Beotiya ittifoqiga boshchilik qilish uchun bir necha beotarxdan iborat kengash saylab qo‘yilgan. Ulardan Pelopid va Epaminod eng mu’tabari va ichki hamda tashqi siyosatning amaliy rahbarlari edilar.

Spartaning Fivada o‘z hokimiyatini qayta tiklash uchun kuchi yo‘qligi aniqlangach, Afina miloddan avvalgi 378 yilda Antalkid sulhini buzib, 2-Afina dengiz ittifoqini tuzishga muvaffak, bo‘lgan. Bu ittifoq 1-Afina dengiz ittifoqiga qaraganda ancha kam sonli bo‘lgan, Kichik Osiyodagi yunon shaharlari unga kirolmagan: Sparta ehtiyyot chorasi yuzasidan shaharlarni Antalkid sulhiga muvofiq Eronga kechib

⁷⁹Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 144-б.

⁸⁰Сергеев В.С. История Древнего Греции. Москва 1939 г. С. 158.

bergan. Garchi ittifoqchilar Afina o‘tmishda ularni itoat qildirishga uringanini unutmagan bo‘lsalarda, lekin ularning iqtisodiy va siyosiy manfaatlari ko‘p jihatdan Afina manfaatlari bilan mos bo‘lib tushgan. Rivojlanib borayotgan quldorlik xo‘jaliklarining manfaatlari shunday birlashuvni talab qilgan. Spartaning siyosati bu intilishlarga ters kelgan⁸¹.

2-Afina dengiz ittifoqini tuzganda ittifoqchilar Afina tomonidan ulug‘ davlatchilik siyosatining ortiq qayta takrorlanmasligi to‘g‘risida kafolat talab qilganlar. Zaiflashib qolgan Afina ittifoqchilar huididida kleruxiyalar joriy etishdan, foros undirishdan va ularning ichki ishlariga aralashishdan voz kechgan. Afinada sinedrion-ittifoqchilar vakillarining kengashi yig‘ila boshlagan. Bu kengash tarkibiga Afina vakillari bo‘lmagan. Kengash hamma eng muhim ittifoq ishlarini dastlab tekshirib chiqardi. Sinedrion qarorlari so‘ngra Afina *halq* yig‘inida qarab chiqilar va tasdiqlanardi. Lekin moliya masalalari sinedrionda uzil-kesil hal qilinardi⁸².

2-Afina dengiz ittifoqi a’zolarining soni u yashab kelgan daslabki uch yil mobaynida ko‘payib, 70 dan oshgan. Afina harbiy-dengiz floti qurib *olgan* va dengizda spartaliklar ustidan bir necha bor g‘alaba qozongan.

Peloponnes ittifoqining buzilishi. Fivaning yetakchiligi. Miloddan avvalgi 374 yilgi sulk shartnomasida Sparta 2-Afina dengiz ittifoqi mavjudligini tan olishga majbur bo‘lgan.

Spartaga eng qattiq qarshilik ko‘rsatgan Fiva bo‘lgan. Shundan keyin spartaliklar navbatdagi umumyunon sulk bitimini buzib, Fivaga qarshi faol harakat boshlaganlar⁸³.

⁸¹Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 145-б.

⁸²Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 145-б.

⁸³Струве В.В. Древняя Греция. Москва 1956 г. С. 236.

Fiva qo'shinining boshlig'i beotiyalik Epaminond jangchilarni saflash va jang olib borishning "qiya pona" deb ataluvchi yangi taktikasini qo'llangan. Bu taktikaning mohiyati shundap iborat bo'lganki, qo'shinlar an'anaga ko'ra bir tekisda saflanmasdan, balki so'l yon tomon zarbdor kolonna bilan kuchaytirilib taxminan 50 qator ichkari kiritilgan. Safning oxirgi katorlari Pelopid qo'mondonligi ostidagi maxsus saralangan «muqaddas bo'linma» dan iborat bo'lgan. Bundan tashqari, Fiva qo'shini tarkibida otliq askarlar ham bo'lgan. Bu taktikadagi yangilik shundan iboratki, kuchlar bir maydonda to'planib, ayni shu joyda dushman yon tomonlarini yorib o'tish uchun qat'iy ustunlik hosil qilish kerak bo'lgan⁸⁴.

Miloddan avvalgi 371 yilda Beotyaning Levktra shahri yonida bostirib kirgan spartaliklar bilan bo'lgan jangda Epaminond dushmanning o'ng qanotiga qarshi «qiya pona» ni muvaffaqiyat bilan *tatbiq* etgan. Bu jang butun Yunonistonga spartaliklarning an'anaviy harbiy usullari qoloqligini yana bir marta ko'rsatgan va Spartaning obro'-e'tiboriga qattiq zarba bo'lib tushgan. Arkadiyaning taklifiga binoan Epaminond Peloponnesga bostirib kirgan. Peloponnes ittifoqi buzilgan. Arkadiya va Messeniya o'z mustaqilligini e'lon qilishgan. Lekin fivaliklarning kuchi undan keyingi hujum uchun yetarli emasligi ma'lum bo'lgan. Epaminond Sparta yaqinida namoyishkorona saf tortib o'tish bilan cheklangan va Peloponnesni tark etgan⁸⁵.

Miloddan avvalgi 367 yilda Eron shohi Beotiya ittifoqini tan olgan. Epaminond va Pelopid rahbarligida harakat qilayotgan Fiva Yunonistonning yetakchisi bo'lishga uringan, lekin bu maqsadiga to'la erisholmagan.

⁸⁴Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. "Ўқитувчи" 1975. 145-б.

⁸⁵Струве В.В. Древняя Греция. Москва 1956 г. С. 237.

Beotiya qishlok xo‘jalik mamlakati bo‘lib, zaxiralari cheklangan edi. Faol tashqi siyosat Beotiya dehqonlarining farovonligiga putur yetkazgan, Fiva Sparta ustidan g‘alaba qozongandan va Peloponnes ittifoqi buzilgandan keyin Afina mag‘lub Sparta bilan yaqinlashgan. Axayya, Arkadiyaning bir qismi va Elida Peloponnesda Fivaga qarshi chiqishgan. Yunonistonda miloddan avvalgi IV asrda yunon davlatlarining, yetakchilik rolini olishga da'vo kilgan eng kuchli davlatga qarshi, odatdagi birlashuvi yuzaga kelgan⁸⁶.

Miloddan avvalgi 363-362 yillarda Epaminond Fivaning obro‘sini kuchaytirish masadida yangidan Peloponnesga bostirib kirgan. Lakoniya chegarasi yaqinida joylashgan Mantiney yonida miloddan avvalgi 362 yilda bo‘lgan jangda fivaliklar spartaliklar ustidan yana g‘alaba qozonganlar, lekin Epaminond qattiq yarador bo‘lib, jang maydonida o‘lgan⁸⁷.

2-Afina dengiz ittifoqining buzilishi. yetakchilik uchun kurashda xoldan toygan Fiva Yunonistonda rahbarlik rolini qo‘ldan berib qo‘ydi. 2-Afina dengiz ittifoqi hamon kattagina birlashma bo‘lib qolmoqda edi. Binobarin, Afina, siyosiy arboblarining fikriga ko‘ra, o‘zining o‘tmishdagi qudratini qayta tiklash uchun qulay vaziyatdan foydalanib qolishga shoshilgan. Afina 1-Afina dengiz ittifoqida qo‘llangan amaliyotini qaytadan qo‘llanishga, ya’ni kleruxiyalarni ko‘chirib borishga va ittifoqchilardan ularning manfaatlari bilan xisoblashmasdan muntazam suratda xirojlarni undirib olishga uringan. Bu narsa 2-Afina ittifoqining buzilishiga sabab bo‘lgan. «Ittifoqchilar urushi» degan urush kelib chiqqan (miloddan avvalgi 357-355 yillar). Afina floti mag‘lubiyatga uchraydi. 2-Afina dengiz ittifoqi 22 yil yashagandan keyin tarqalib ketadi⁸⁸.

⁸⁶Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 146-б.

⁸⁷Струве В.В. Древняя Греция. Москва 1956 г. С. 238.

⁸⁸Крушкол Ю.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975. 146-б.

XULOSA

Peloponnes urushi qadimgi Yunonistonning quldorlik jamiyatida ichki ziddiyatlarning jamlanishi va keskinlashuvi natijasida kelibchiqqan ediki, bu ziddiyatlarga viloyatlarning notekis rivojlanishi asos bo‘lgan. Qoloq Spartaning 1-Afina dengiz ittifoqini zaiflashtirish yoki qaqqhatish xisobiga Yunonistonda o‘z siyosiy yetakchilagini qayta tiklashga intilishi, Afinaning iqtisodiy jihatdan rivojlangan raqobatchilarini, asosan, Korinf va Megaraning o‘z savdo va hunarmandchilik muxoliflarini zaiflashtirish istagi bilan mos tushgan. Afinaning Janubiy Italiya va Sitsiliyada mustaxkamlanib olish niyati Korinf va Peloponnes ittifoqi uchun ayniqla xavfli bo‘lgan. Miloddan avvalgi V asrning ikkinchi yarmida yunon polislaring aksariyati yo 1-Afina dengiz ittifoqiga, yo Peloponnes ittifoqiga kirganligi sababli urush umumyunon tusini olgan.

1-Afina dengiz ittifoqining iqtisodiy va siyosiy jixatdan gurkirab rivojlanishi bilan bir qatorda Afinaning ittifoqchilar bilan xam, boshqa yunon polislari bilan ham munosabatlari keskinlashib ketgan. Ikki o‘rtada bo‘lib o‘tgan arxidam urishidan keyin 50 yilga tinchlik shartnomasi imzolandi. Lekin Peloponnes urushini keltirib chiqargan ziddiyatlar ilgarigicha hal qilinmay qolgan. Dushman tomonlarning kuchlari taxminan baravar bo‘lgan. Bolqon yarim orolini va unga yaqin orollarni bo‘lib olish bilan cheklangan urush kattaroq natijalarga olib kelmagan. Afina floti tomonidan Peloponnesning nomuntazam qamal qilinishi Peloponnes ittifoqini bo‘sashtira olmagan. Afina aholisining savdo-hunarmandchilik qatlamlari urushning durang bilan tamom bo‘lganidan norozi bo‘lganlar. Rivojlanib borayotgan quldorlik iqtisodiyoti Afina tomonidan nazorat qilinadigan xududlarni kengaytirishni talab etgan, shu sababli urushni yangidan boshlash mayli yana paydo bo‘lgan.

Bir oz tanaffus bilan 27 yil davom etgan qattiq o‘zaro Peloponnes urushi qoloq Spartaning iqtisodiy va siyosiy jihatdan xiyla taraqqiy qilgan Afina ustidan g‘alabasi bilan tamomlangan. Afina demokratik hukumati bir qancha xatolarga yo‘l qo‘ygan, bu xatolar orasida eng

og‘iri Sitsiliya ekspeditsiyasi bo‘lgan. Lekin Sparta afinaliklar Sitsiliyada xalokatga uchraganlaridan keyin ham faqat Eronning yordami bilangina Afinani yengishi mumkin bo‘lgan. Shunday qilib, Afinaning mag‘lubiyatiga halqaro vaziyat ham yordamlashgan. Ammo Afinaning muvaffaqiyatsizligini ildizi Afina demokratiyasining cheklanganlida ham edi. Bu demokratiya o‘zi to‘zgan arxeda qullarnigina emas, balki o‘z ittifoqchilarini ham ekspluatatsiya qiluvchi yetakchiga aylangan edi. 1-Afina dengiz ittifoqinn vujudga keltirgan ijtimoiy g‘ iqtisodiy taraqqiyot keng birlashuvni, polis doirasida cheklanib qolishni bartaraf qilishni talab etardi. Lekin 1 – Afina dengiz ittifoqi buni bartaraf etolmagan.

Pelopones urishi butun Yunonistonni juda zaiflashtirib qo‘ygan, uning iqtisodiy salohiyatiga putur yetkazgan.

Bolqon yarim oroli, Kichik Osiyo Yunonistonining ko‘p xududlarini xonavayron qilgan Peloponnes urushini keltirib chiqargan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot urush tamom bo‘lgandan keyin ham davom etgan. Yunon dunyosining ichki ishlariga aralashib, spartaliklarga yordam berib kelgan Eron Sparta bilan Afina o‘rtasida sulh tuzilgandan keyin ham o‘zining aralashuv siyosatini davom ettirgan.

Yunonistonning yangi yetakchisi Sparta yunon dunyosida raxbarlik rolini amalga oshirishda mag‘lubiyatga uchragan Afina ega bo‘lgan darajada ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tajribaga ega emas edi. Miloddan avvalgi IV asrning birinchi yarmidagi ichki va xalqaro vaziyat esa miloddan avvalgi V asrning o‘rtalari va ikkinchi yarmidagi vaziyatdan murakkabroq edi. Bu davrda yunon xayotini belgilab beruvchi asosiy faktorlar quzdorlik mahsulot xo‘jaligining yanada o‘sishidan va bu o‘sishning natijasi sifatida ilg‘or, iqtisodiy jihatdan taraqqiy kilgan shaharlarda erkin aholining tabaqalanishidan hamda Bolqon Yunonistonsining janubiy, g‘arbiy va shimoliy kismida ilgari koloq bo‘lgan

xududlarda iqtisodiyotning rivojlanishidan iborat. Bu faktorlar qadimgi yunon jamiyatida sinfiy kurashni keskinlashtirdi va maxsulotlar sotishni qiyinlashtirdi. Zaif shahar davlatlari esa buning ustiga tag‘in qudlorlarni xonavayron qilingan xalq ommasining g‘azabidan omon saqlashga ojiz ham edilar.

Ko‘p dehkonlar va hunarmandlar qatnashgan urush harakatlari ko‘p yillar davom etganligi sababli bir qancha yer maydonlari qarovsiz, tashlandi bo‘lib qolgan. Omadi kelgan qudlorlar ana shu yer maydonlarini bosib olgan yoki arzon bahoda sotib olganlar. yerlar, qullar va boshqa turdagи mol-mulklar qisman qaytadan taqsimlanib, ozgina kishilar qo‘lida to‘planib qolgan. Lekin bu jarayoni bo‘rttirib ko‘rsatish yaramaydi. Yunon shaharlari sharoitida ayniqsa katta yer-mulkarning yoki ustaxonalarining ayrim shaxslar qo‘lida mavjud bo‘lishi mumkin emas edi. Ko‘pincha savdo-sudxo‘rlik kapitalining ayrim qullarda to‘planishi ko‘rinadi, shu bilan birga savdogarlar va sudxurlar ayni vaqtda yerkarni qo‘lga kiritib olishga ham intilganlar. Binobarin, hatto maxsulot ishlab chiqarish eng taraqqiy qilgan davrlarda ham qudlorlik jamiyatining natural asosi ana shunda namoyon bo‘lgan. Boy qudlor-plutokratlar ayni bir vaqtda ham sudxur, ham savdogar, ham yer egasi bo‘lganlar.

Amalda ana shular iqtisodiy jixatdan taraqqiy qilgan yunon shaharlarining ichki va tashqi siyosatiga ta’sir ko‘rsatib turganlar.

O‘tmishda milliy qudlorlik shaharining tayanchi o‘rta hol fuqarolar bo‘lib, bu fuqarolar, barham topgan shaharning Aristotelning ta‘biricha, eng yaxshi davlat idora usulini-politiyani tashkil etganlar. O‘rta va mayda qudlorlar shahar xalq lashkarida ham xizmat qilganlar.

Miloddan avvalgi IV asrdagi demokratik shaharlardagi halq yig‘inlarida biz butunlay boshqacha manzarani ko‘ramiz. Sirtdan xech qanday muxim o‘zgarishlar bo‘lmagan. Afinada hatto demokratik belgilar kuchaygan: saylab qo‘yiladigan ko‘p lavozimlarga davlat

tomonidan maosh to‘langan (fuqarolarga hatto xalq yig‘iniga borish uchun ham maosh to‘langan). Lekin sirtqi demokratlashtirish zamirida fuqarolarning xonavayron bo‘lishi hamda davlat lavozimlarining va halq yig‘inida qatnashishning yarim qashshoq fuqarolarning ozgina bo‘lsada, doimiy daromad manbaiga aylanishi pinhon bo‘lgan, chunki xokimiyat tepasida turgan plutokratlar va oligarxlar bu yarim qashshoq fuqarolarni ana shunday sadaqa berish yuli bilan bo‘lib turganlar. Xalq yig‘ini odatda boylarning xohishiga qarab ish tutgan. Lekin yurakda tug‘ilib yotgan qaxr-g‘azab ba’zan sirtga otilib chiqqan, natijada kambag‘al fuqarolar *xalq* yig‘inida yirik mulkdorlarga bir yo‘la favqulodda soliq solish, ulardan birontasini yoki bir nechtasini qisman yoki to‘la ekspropriatsiya qilish haqida qonun chiqartirishga muvaffaq bo‘lganlar.

Miloddan avvalgi IV asrdagi shaharlarda eski shahar halq lashkari o‘z ahamiyatini yo‘qotgan. Fuqarolarning o‘rtta tabaqasi barham yegan, vaholanki xalq lashkarining asosiy kuchlari ana shu tabaqadan iborat bo‘lgan. Kambag‘allarning qurol-yarog‘ sotib olib xalq lashkari safiga borishga mablag‘i bo‘lmagan va buning ustiga plutokratlarning manfaati uchun jang qilishga ularning istagi ham bo‘lmagan.

Miloddan avvalgi V asrning oxirlari-IV asrning boshlarida Yunonistonda yollanma askarlarning bo‘linmalari tez fursatda harbiy kuchlarning asosiy turi bo‘lib qolgan. Yollanma askarlar ilgari ham oz-moz bo‘lgan, lekin endilikda ular ommaviy tus olgan.

Quldarlik jamiyatining rivojlanishi sharoitida kambag‘allahib qolgan omma uchun og‘ir ahvoldan qutulishning birdan-bir yo‘li yollanma askarlar safiga kirishdan iborat edi.

Qullar bajaradigan hunarmandchilik ishi ko‘p mablag‘ sarflashni talab qilmagan va umuman qadimgi dunyo xo‘jaligining unchalik ko‘p

bo‘lмаган extiyoji va iste’molchilik xarakteri bilan cheklangan. Boylarning bo‘sh mablag‘lari zeb-ziynatga sarflangan, bu esa ijtimoiy tengsizlikni yanada yaqqolroq namoyon qilar va boylar bilan kambag‘allar o‘rtasidagi antagonizmni kuchaytirgan. Jamg‘arilgan boyliklarning bir qismi xazina-dafinaga aylantirilib, o‘g‘irlash va musodara qilinishdan extiyot chorasi sifatida yerga ko‘milgan.

Ichki shahar bozori hamisha cheklangan edi, buning natijasida miloddan avvalgi V asrdayoq shaharlarning ittifoqlarga birlashuvi yuzaga keladi. Miloddan avvalgi IV asrda ichki bozor yana ko‘proq torayadi. Erkin aholi keng qatlamlarining xonavayron bo‘lishi ularning xarid qobiliyatini pasaytiradi. Qullarko‘pincha xech nima sotib olmaganlar. Boy yer egalari o‘z nullari ishlagan buyumlardan foydalanib, mahalliy maxsulotlarni sotib olmaganlar. Yunonistonning qolgan xududlari qulchilik taraqqiyotiga qadam qo‘ygan edi, binobarin, Afina, Korinf va boshqa savdo hunarmandchilik markazlarida ishlab chiqarilgan maxsulotlarni kam sotib olganlar. O‘sib ketgan qullik xunarmandchiligi esa ishlab chiqarilgan buyumlarni sotishga muhtoj bo‘lgan. Shaharlarning tor chegaralari quldorlik jamiyatining iqtisodiy jihatdan yanada rivojlanishini qiyinlashtirgan. quldorlik jamiyatining ancha ilk bosqichida keskinlashgan sinfiy kurash sharoitida paydo bo‘lgan shaharlar quldorlarning manfaatlarini va mol-mulklarini yaxshi ximoya qilmaganlar. Shaharlar yetarli darajada kuchli bo‘lмаган. Ijtimoiy inqiroz ustiga shahar davlat ustqurmasining siyosiy inqirozi kelib kushildi.

Miloddan avvalgi IV asrning birinchi yarmida umumyunon shaharlari sharoiti ana shundan iborat bo‘lib, bu sharoitni shahar-davlat (shahar) doirasidagi yunon quldorlik jamiyatining ijtimoiy va siyosiy inqirozi deb tavsiflash mumkin. Bu yaxlit holdagi quldorlik sistemasining inqirozi emas edi.

Bu inqiroz ko‘proq taraqqiy qilgan milliy shaharlarda paydo bo‘ldi va quidorlik xo‘jaligi taraqqiyotining natijasi sifatida Yunonistonning ko‘p qismida yoyildi.

Eron yordami bilan Afina mag‘lub qilingach Sparta Yunonistonga yana yetakchi bo‘lib olgan. Askarboshilar-garmostlar-boshchiligidagi Sparta harbiy bo‘linmalari afinaliklar hokimiyatidan rasmiy ravishda «ozod qilingan», yunon shaharlarida joylashtirilgan va ular shaharlarni talashga kirishganlar. Garchi Sparta Peloponnes urushi jarayonida o‘z aholisini tashqi ta’sirlardan ajratib saqlash siyosatiga barham bergan bo‘lsada, lekin ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jixatdan qoloq bo‘lgan Sparta miloddan avvalgi IV asrning boshlarida Yunonistonning yetakchisi bo‘lish kabi o‘z oldida turgan murakkab vazifalarni uddalay olmagan. Sparta Yunoniston ustidan nazorat o‘rnatishga muvaffaq bo‘lomagan. Aksincha, sun’iy yakkalanishdan uzil-kesil qutulib chindan Sparta jamiyati Yunonistonning iqtisodiy va siyosiy jixatdan rivojlangan xududlarining kuchli ta’siriga olingan. Miloddan avvalgi V va IV asrlar chegarasida kuchayib ketgan mulkiy tabaqalanish Sparta qonunchiligidagi ham o‘z ifodasini topgan. Sparta tarixida birinchi marta o‘laroq spartaliklarning yer maydonlarini vasiyat qilib qoldirish va in’om qilish to‘g‘risidagi efor Epitadey qonuniga binoan amalda yer maydonlarini sotish va sotib olishga ruxsat etilgan. Spartaliklar o‘rtasida ko‘p miqdorda kumush va xatto oltin pullar tarqala boshlagan.

yetakchilik uchun kurashda xoldan toygan Fiva Yunonistonda rahbarlik rolini qo‘ldan berib qo‘ydi. 2-Afina dengiz ittifoqi hamon kattagina birlashma bo‘lib qolmoqda edi. Binobarin, Afina, siyosiy arboblarining fikriga ko‘ra, o‘zining o‘tmishdagi qudratini qayta tiklash uchun qulay vaziyatdan foydalanib qolishga shoshilgan. Afina 1-Afina dengiz ittifoqida qo‘llangan amaliyotini qaytadan qo‘llanishga, ya’ni kleruxiyalarni ko‘chirib borishga va ittifoqchilardan ularning manfaatlari bilan xisoblashmasdan muntazam suratda xirojlarni undirib olishga uringan. Bu narsa 2-Afina ittifoqining buzilishiga sabab bo‘lgan. «Ittifoqchilar urushi» degan urush kelib chiqqan (miloddan avvalgi 357-355

yillar). Afina floti mag‘lubiyatga uchraydi. 2-Afina dengiz ittifoqi 22 yil yashagandan keyin tarqalib ketadi

Yuqoridagi xulosaga qarab quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdim

- Pelopones urishi tarixi manbalari o'zbek tiliga tarjima qilinib chop etilsa maqsadga muofiq bo'lardi
- Sparta yetakchisiyasining kuchayishi,Fivaning yuksalishi, 2-Afina ittifoqining tashkil topishi, Sparta va Eron munosabatlariga ham oliy ta'lim muassalarida yetarlicha soat ajratilsa tarixchi talabalarga foyda bo'lar edi

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yhati:

I. Rahbariy adabiyotlar:

1. Karimov I. Ma’naviy yuksalish yo‘lida. T. “O‘zbekiston”. 1998.
2. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T. “Sharq”. 1998.
3. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T. “Ma’naviyat”. 2008.
4. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз (ўзбек ва рус тилларида). Т.: Ўзбекистон; 2016. – 56 бет.
5. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қаътъий тартиб - интизом ва шахсий жавобгарлик - хар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак (ўзбек ва рус тилларида). Т.: Ўзбекистон; 2017.– 104 бет.
6. Мирзиёев Ш.М. Олий мажлисга мурожаатнома. Т.: Ўзбекистон; 2017.

II. Asosiy adabiyotlar:

1. КрушколЮ.С. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Тошкент. “Ўқитувчи” 1975.
2. Кузин В. И. История древнего Востока. МГУ, 1991.
3. Черкасова Е.А. Хрестоматия по истории древнего мира. Москва. “Просвещение”. 1991.
4. Бойназаров Ф. Қадимги дунё тарихи. Тошкент. “Иқтисод-молия”. 2006.
5. Вигасин А. А. История древнего востока. Москва: Дрофа, 2006.
6. Hamayev N. Qadimgi dunyo tarixi: mummoli ma’ruzalar matni. Far’ona., 2007
7. Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi. Toshkent 2009.

III. Qo‘srimcha adabiyotlar:

1. Сергеев В.С. История Древнего Греции. Москва 1939 г.
2. Машкин Н.А.История Древнего Рима. 1947 г.
3. Авдиев В.И. История Древнего Востока. Ленинград 1948 г.
4. Сергеев В.С. История Древнего Греции. 1948 г.
5. Всемирная история. Т. 1. Москва, 1951.

6. Авдиев В.И. История Древнего Востока. Ленинград 1953 г.
7. Струве В.В. Древняя Греция. Москва 1956 г.
8. Просина Н.Л. Практикум по истории Древнего Рима. Москва 1960.
9. Авдиев В.И. История Древней Греции. Москва 1962 г.
- 10.Дьяконов В.Н. История Древнего Мира.Москва 1962 г.
- 11.Авдиев В.И. Қадимги Шарқ тарихи. Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1964.
- 12.Просина Н. И. Практикум по истории древнего мира. Москва, 1964.
- 13.Токарев С.А. Религия в истории народов мира. Москва. 1964.
- 14.Струве В.В. Хрестоматия по истории Древнего Востока. Москва 1965г.
- 15.Авдиев В.И. История Древнего Востока. Москва 1970 г.
- 16.Кузицин В.И. История Древнего Рима. Москва 1971 г.
- 17.Бокшанин А.Г. История Древней Греции. Москва 1972 г.
- 18.Редер Д.Г, Черкасова Е.А. Қадимги дунё тарихи. I қисм. Тошкент.
“Ўқитувчи” 1974.
- 19.Кузицин В.И. История Древнего Востока. Москва 1979 г.
- 20.Редер Д.Г. История Древнего Мира. Москва 1979 г.
- 21.Корестовцев И.А. Хрестоматия по истории Древнего Востока. Москва 1980г.
- 22.История Искусства зарубежных стран. Первобытное общества, Древний восток, Античность. Москва. “Изобразительное Искусство”. 1981.
- 23.Кузицин В.И. История Древнего Рима. Москва 1981 г.
- 24.Бокшанин А.Г. История Древнего Мира. Москва 1982 г.
- 25.Крушкол Ю. С. История древнего мира.Ч. 1. Москва: Просвещение, 1982.
- 26.Редер Г. История древнего мира. Ч. 1. Москва, 1982.
- 27.Курбатов Г.Л. История Византии. Москва 1984 г.
- 28.Вигасин А.А. История Древнего Востока. Москва 1991 г.
- 29.Кузицин В.И. История Древней Греции. Москва 1986 г.
- 30.Немировский А. И. Книга для чтения по истории древнего мира. Москва: Просвещение, 1986.

- 31.Кузицин В.И. Хрестоматия по история Древнего Рима. Москва 1987 г.
- 32.Кузицин В.И. История Древнего Востока. Москва 1988 г.
- 33.Дьяконов В. Н. “История древнего мира” Т. I. Москва: Наука, 1989.
- 34.Историки античности. Том первый.Москва. “Правда”. 1989.
- 35.Историки античности. Том второй.Москва. “Правда”. 1989.

IV. Foydalanilgan internet saytlari

- 1.www.e-tarix.uz
- 2.www.ziyouz.com
- 3.www.arxiv.uz
- 4.www.dilib.uz